

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK \_\_\_\_\_

**XIMMATOV ILYOS RUSTAM O‘G‘LI  
IDIOMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.d., prof B.Umurqulov**

**Termiz – 2024**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil \_\_\_\_\_ №\_\_-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy).

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_

**f.f.d., prof. B.Umurkulov**

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_

**f.f.f.d.(PhD) N. Amonturdiyev**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i:** \_\_\_\_\_

**k.f.f.d. D.Abduraximov**

## ANNOTATSIYA

**Tayanch soʻzlar:** frazeologik birlik, idiomatiklik, frazeologik chatishmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik qoʻshilmalar, noidiomatik birlik, idioma, lingvistik tahlil, lingvopoetik tahlil.

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** XXI asr boshlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy yoʻnalishi turli xil frazeologizmlarni tashkil qiluvchi elementlarni aniqlash hamda tadqiq qilishga doir bir qator muammolarning yuzaga chiqqanligini koʻrsatadi. Frazeologik birliklar til egalarining milliy-madaniy xususiyatlarini oʻzida aks ettirishi maʼlumdir. Bu xususiyatlarga ega birliklarning har tomonlama tadqiq etilishi bugungi tilshunoslik uchun ham dolzarbdir.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oʻzbek tilida mavjud idiomalar, ularning lingvistik va lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish tanlangan. Idiomalarning frazeologik chatishma va noidiomatik birliklardan farqlanishi, uning alohida ahamiyati, milliy madaniyat tizimida muhim oʻrin tutishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotimizning **maqsadi** oʻzbek tilida mavjud idiomalarning dunyo va oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi va tadqiqiga doir maʼlumotlarni tahlilga tortish, tadqiqot doirasida yigʻilgan idiomalarning lingvistik va lingvopoetik tahlilini olib borish, idiomalarning boshqa frazeologik birliklardan farqli hamda oʻxshash xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilingan tadqiqotning maqsadi quyidagi **vazifalarni** shakllantirishga olib keldi:

- jahon tilshunosligida va oʻzbek tilshunosligida frazeologik birliklar va idiomalarga bagʻishlangan ilmiy ishlar bilan tanishish va tahlilga tortish;
- oʻzbek tilida mavjud idiomalarni toʻplash;
- toʻplangan idiomalar va idiomaga yondosh deb topilgan birliklarni tadqiqqa tortish, ularning oʻxshash va farqli jihatlarini ochib berish, misollar orqali dalillash;

- idiomalarning semantik va strukturaviy xususiyatlarini tahlilga tortish va o‘zbek tilida mavjud idiomalarning mavzuviy guruhlarini aniqlash;
- idiomalarning tuzilishiga ko‘ra turlarini tahlil qilish;
- nasriy va she‘riy matnlardagi idiomalarni tahlil qilish va ularning lingvopoetik qimmatini aniqlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- o‘zbek tilidagi idiomalar semantik jihatdan tasniflandi va ichki mavzuviy guruhlarga bo‘lib chiqildi;
- o‘zbek tilidagi idiomalar struktur jihatdan tasniflandi;
- o‘zbek tilidagi idiomalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Mazkur tadqiqot ishining metodlari sifatida tasniflash, guruhlash, lingvopoetik tahlil, semantik tahlil, struktur tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy jihatlar quyidagilar:**

1. So‘z ma‘nosining o‘ziga xos bo‘lagi sifatidagi ramziy komponentning mavjudligi, ular orqali og‘zaki belgi milliy belgilar tizimi bilan bog‘lanishni ifodalaydi.
2. So‘zlar va iboralar ma‘lum ekstralingvistik vaziyatlarda ramz vazifasini bajarishi mumkin. Shunday qilib, so‘z yoki og‘zaki ifoda ramziy ma‘lumotlar majmuasini uzatish funksiyasini bajarishi mumkinligi aniqlandi.
3. Ramz frazeologizmlarda madaniy ahamiyatga ega axborotni aks ettirishga qodir birlikdir.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning amaliy ahamiyati frazeologizmlarni to‘g‘ri ajrata olish, idiomalarning ma‘no jihatlarini tahlil qilish orqali o‘ziga xos yondashuvni belgilash, shu bilan birga, tadqiqot natijasida olingan xulosalardan o‘quv kurslarida foydalanish, lingvokulturologiyaga doir nazariy bilimlarni berish, lingvopoetik tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 75 sahifani tashkil etadi.

## ANNOTATION

**Key words:** phraseological unity, idiomaticity, phraseological blends, frazeologic wholes, frazeologic combinations, non-idiomatic unit, idiom, linguistic analysis, lingvopoetic analysis.

**Relevance of the research topic.** The first quarter of the 21st century indicates the emergence of the problems related to the identification and analysis of various elements of phraseological units in theoretical research. It is known that phraseological units reflect the national-cultural characteristics of the language speakers. The comprehensive study of these units with such characteristics is also relevant for today's linguistics.

**As an object of research,** it was chosen to analyze the existing idioms in English, their linguistic and linguistic characteristics. Idioms differ from phraseological chatter and non-idiomatic units, its special importance, and its important role in the national cultural system.

**The purpose of our study is** to analyze information on the study and study of existing idioms in world and Uzbek linguistics, to conduct linguistic and linguistic analysis of the materials (idioms) collected in the study, and to identify differences and similarities between different phrase units and idioms.

The purpose of the aforementioned study **led to the formation of the following tasks:**

- familiarization and analysis of scientific work on phraseological units and idioms in world linguistics and Uzbek linguistics;
- collect existing idioms in Uzbek;
- studying accumulated idioms and units found to be adjacent to idioms, revealing their similarities and differences, and proving them through examples;
- analyze the semantic and structural characteristics of idioms and identify thematic groups of idioms available in Uzbek;
- analyze the types according to the structure of idioms;

– analyze idioms in prose and poetic texts and determine their linguistic value.

**As a scientific novelty of the study**, you can specify the following:

- idioms in The English language were semantically classified and divided into internal thematic groups;
- idioms in The Uzbek language are structurally classified;
- linguistic analysis of idioms in Uzbek.

**Description of the methodology used in the study.** Research methods such as classification, grouping, linguistic analysis, semantic analysis, and structural analysis were used as methods of this research work.

**Here are some of the main aspects of protection:**

1. The presence of a symbolic component as a distinctive part of the vocabulary, through which the verbal sign represents a link to a system of national characters.

2. Words and phrases can act as symbols in certain extralinguistic situations. Thus, it was determined that a word or verbal expression can perform a symbolic data set transfer function.

3. Symbolism is a unit capable of reflecting information of cultural importance in phraseology.

**Theoretical and practical significance of the work.** The practicality of the study is determined by the fact that it can be used to properly distinguish phrase units, as well as to develop a special approach by studying the semantic aspects of idioms, as well as to apply the results and materials of the study in phraseology courses, to teach linguistics, and to perform linguistic analysis.

**A brief description of the contents of the dissertation.** The study consists of an introduction, three main chapters, a general summary, and a list of available publications, with 75 pages.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. IDIOMANING TA'RIFI VA UNING TIL TIZIMIDA TUTGAN O'RNI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Idiomaning dunyo tilshunosligida o'rganilishi.....	9
1.2. O'zbek tilshunosligida idioma tadqiqiga oid tadqiqotlar sharhi.....	23
<b>I bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>33</b>
<b>II BOB. IDIOMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>34</b>
2.1. Idioma va unga yondosh hodisalar.....	34
2.2. Idiomalarning semantik va struktur xususiyatlari.....	41
<b>II bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>49</b>
<b>III BOB. IDIOMALARNING LINGVOPOETIK QIMMATI.....</b>	<b>50</b>
3.1. Nasriy asarlarda idioma.....	50
3.2. She'riy asarlarda idioma.....	61
<b>III bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>64</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>65</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>67</b>

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Tilshunoslikning struktur-funksional bosqichida asosiy e'tibor tilni tizim sifatida o'rganish masalasiga qaratildi. XX asr oxiriga kelib tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganuvchi ilmiy paradigma – antroposentrizmga e'tiborning kuchayishi natijasida tilshunoslik sohasida yechimi topilishi zarur bo'lgan bir qator muammolar yuzaga keldi. Jumladan, til birliklarini nutqiy vaziyat, til egalarining ruhiyati, olam haqidagi bilimlari, assotsiativ tafakkuri, milliy-madaniy qarashlari kabi nolisoniy omillar bilan bog'liq holda o'rganish g'oyasi markaziy o'ringa chiqdi. So'nggi paytlarda tilshunoslikdagi ko'pgina tadqiqotlarda tilning ontologik mohiyatiga, shu bilan birga olamni bilish va til yordamida olamni bilish jarayonlarining qay tarzda amalga oshishiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Olamni bilish muloqot vositalari, turli bilim tizimlari va bilish shakllarining o'zaro ta'sirining murakkab, ko'p omilli uzoq va qisqa davom etadigan jarayonidir. Ayni vaqtda insonga turli yo'llar orqali keladigan barcha ma'lumotlarning aloqa predmetiga aylanishi uchun uning konseptual tizim va lisoniy shaklga ega bo'lishi ham kerak.

Tilning frazeologik tarkibini o'rganishning hozirgi holati shuni ko'rsatadiki, idiomalarni milliy mentalitet tashuvchisi sifatida ko'rish mumkin, bu esa o'z o'rnida o'z tadqiqini umuman frazeologiyada ham, xususan, tilshunoslikda ham yetakchi o'rinlardan biriga qo'yadi. Bu tadqiqotning dolzarbligini anglatadi, chunki zamonaviy tilshunoslikda idiomatik konstruksiyalariga, ularning lingvistikasiga (masalan, idioma tarkibida dominant komponentlarning mavjudligi yoki idiomalarning o'zgarishlarga moyilligi) qiziqish ortib bormoqda.

“Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy

etishni ta'minlash"<sup>1</sup> maqsadida so'zlashuv nutqidan muqim joy olgan lingvistik birliklarni, xususan, idiomalarni tadqiq etish har taraflama dolzarb bo'lib bormoqda.

2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** o'zbek tilining badiiy va so'zlashuv uslubiga oid idiomalar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek tilidagi idiomalarning semantikasi, strukturasi, shuningdek, idioma va unga yondosh hodisalar tadqiqi amalga oshirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek tilidagi idiomalarning hosil bo'lish omillari, mavzuviy guruhlari, struktur xususiyatlarini tahlil qilish, idiomalarni nasriy va she'riy asarlarda tahlil qilib uning lingvopoetik tadqiqini amalga oshirishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини tubдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони // [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi vazifalar asos qilib olindi:

jahon tilshunosligida frazeologik birliklar va idiomalarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishish va tahlilga tortish;

o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar va idiomalarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishish va tahlilga tortish;

o‘zbek tilida mavjud idiomalarni to‘plash;

to‘plangan idiomalar va idiomaga yondosh deb topilgan birliklarni tadqiqqa tortish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berish, misollar orqali dalillash;

idiomalarning semantik va strukturaviy xususiyatlarini tahlilga tortish va o‘zbek tilida mavjud idiomalarning mavzuviy guruhlarini aniqlash;

idiomalarning tuzilishiga ko‘ra turlarini tahlil qilish;

nasriy va she’riy matnlardagi idiomalarni tahlil qilish va ularning lingvopoetik qimmatini aniqlash.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqotning uslubiy va nazariy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning idioma va frazeologiya nazariyasiga oid tadqiqotlarni ilmiy tahlil qilish tashkil etadi. Frazeologiyani leksikologiyaning bir bo‘limi sifatida o‘rgangan E.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, so‘ng birinchi bo‘lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o‘rganish masalasini ilgari surgan olimlar B.A.Larin, I.E.Anichkov, V.V.Vinogradov, A.I.Smirnitskiy, N.N.Amosova, A.V.Kunin, V.M.Mokienko, V.M.Savitskiy, L.Y.Buyanov<sup>2</sup>, N.M.Shanskiy<sup>3</sup>, E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov<sup>4</sup>, V.P.Jukov<sup>5</sup>; idioma AQSh tilshunoslari Ch.Friz, Y.Bar-Xiller, J.Kats va I.Postala, Y.Nayda, M.Pei, Ch.Xokket, F.Palmer va boshqalar tomonidan ham o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Буянова Л.Ю. Русский фразеологизм как ментально-когнитивное средство языковой концептуализации сферы моральных качеств личности: монография / Л.Ю. Буянова, Е.Г. Коваленко. М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. – 184 с. 7.

<sup>3</sup> Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка / Н.М. Шанский. – М.: Просвещение, 1985. – 260 с. 20-21.

<sup>4</sup> Верещагин Е.М. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. / Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров. – Изд. 4-е, перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с. 65.

<sup>5</sup> Жуков В.П. Русская фразеология: учебное пособие // В.П. Жуков, А.В. Жуков. – М.: Высшая школа, 2006. – 408 с.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish 1950-yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qo‘chqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. Idiomalar borasidagi ilk ilmiy fikrlar Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, A.E.Mamatov, B.Yo‘ldoshevlarga tegishli bo‘lsa, M.Ro‘ziqulova<sup>6</sup> o‘zbek tilidagi idiomalarni ilk bora ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rgangan, G.Begmatova<sup>7</sup> o‘zbek tilidagi idiomalar korpusini tuzish yo‘lida tadqiqot olib borgan.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomalarni qiyosiy o‘rganilgan ilmiy tadqiqot ishlari ham talaygina. Xususan, Sh.Rahimova<sup>8</sup> ingliz tili idiomatik iboralarini o‘zbek tiliga o‘girishning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etgan. G‘. Salomov<sup>9</sup> maqol va idiomalar tarjimasi bilan shug‘ullangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

jahon va o‘zbek tilshunosligida idiomalarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlilga tortildi;

o‘zbek tilidagi idiomalar semantik jihatdan tasniflandi va yangi (qo‘shimcha) mavzuviy guruhlariga bo‘lib chiqildi;

o‘zbek tilidagi idiomalar struktur jihatdan tasniflandi;

o‘zbek tilidagi idiomalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Mazkur tadqiqotimizda tasniflash, guruhlash, lingvopoetik tahlil, semantik tahlil, struktur tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot va uning natijalaridan bakalavr bosqichidagi talabalarga leksikologiya bo‘limini o‘qitishda, frazeologiya bo‘limidan amaliyot dasturlarini tuzishda, o‘quv-uslubiy majmua tayyorlashda foydalanish mumkin.

---

<sup>6</sup> Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. Самарканд, 1966. — 22 с.

<sup>7</sup> Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филолог. фан. бўйича фалс. док. дисс. – Термиз, 2021. – Б. 27.

<sup>8</sup> Раҳимова Ш. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. афтореф., Тошкент, 2019, 13-бет.

<sup>9</sup> Саломов Ф. Мақол ва идиомаларнинг таржимаси. – Т.: “ФАН”, 1961. – Б. 18.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** frazeologik birliklarni to'g'ri ajrata olishda, idioma va iboralarning farqi ochib berilganligida, shuningdek, idiomalarni semantik jihatdan tahlil qilish orqali maxsus yondashuvni ishlab chiqishda, shu bilan bir qatorda, tadqiqot natijalari va materiallarini frazeologiya kurslarida qo'llash, lingvokulturologiya fanini o'qitishda lingvomadaniy tahlillarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 75 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. IDIOMANING TA'RIFI VA UNING TIL TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

## 1.1. Idiomaning dunyo tilshunosligida o'rganilishi

XX asr oxirida tilshunoslik fani til birliklarining semantikasiga qiziqishning ortishi bilan ajralib turdi. Bu qiziqish tilni tafakkur bilan bog'liq holda o'rganishning tiklanishi tufayli paydo bo'ldi. Tilning semantik jihatdan tasnif qilinishi inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladigan milliy hamda madaniy xususiyatlarini hisobga olmasdan, faqatgina uning birliklarining ma'nosini ifodalashga asoslangan.

Til tadqiqi, ta'limi va o'zlashtirilishida idiomalar uning eng murakkab sohasi hisoblanadi. Tilshunoslar tomonidan idiomalarning turli aspektlarda o'rganilishi bu birikmalar lisoniy tabiatining murakkabligi, amaliy xarakterga ega birlik ekanligidan dalolatdir. Xususan, idioma milliy koloritni o'zida saqlashi, nutqda ixcham va tezkorlik bilan obrazlilik va ta'sirchanlikni oshirishi bilan nutqiy jarayonning jonliligini va shu orqali og'zaki nutqning hissiy bo'yoqdorligini ta'minlaydi<sup>10</sup>.

Frazeologizmlar milliy xususiyatlarni o'zida aks ettiradigan, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan birikib yaxlit holga kelib qolgan so'zlar birikmasi hisoblanadi. Frazeologizmlar ko'chma ma'noga ega bo'lib voqea-hodisalarni obrazli tarzda ifodalashi jihatidan badiiy matnning ahamiyatini oshirib beradi va uning ma'nosi matn ichida yoki muayyan nutqda oydinlashadi. Frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

Tadqiqotchilarning frazeologizmlar haqidagi fikrlari bir-biridan farq qilishi tabiiy va bu holat idiomalarni tugal tasniflash imkonini chegaralaydi. Biz buni frazeologik birliklarni keng va tor mazmunda tushunuvchi olimlarning mavjud nazariyalari mazmunida ko'ramiz. Biroq bunday farqli qarashlar va fikrlarning

---

<sup>10</sup> Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филолог.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2021. – Б. 27.

o'ziga xos asoslari mavjud bo'lib, mazkur yondashuvlar bevosita ilmiy hamjamiyatning paremiologik birliklar borasidagi fikrlariga ham taqaladi.

Idioma (yun. idioma – o'ziga xos ifoda, ibora) – ayn. Frazeologik chatishma<sup>11</sup>.

Idiomalarni milliy xoslangan iboralar yoki frazeologik chatishmalar ham deyish mumkin. Shu tufayli, idiomalar frazeologizmlarning frazeologik butunliklar frazeologik chatishmalar va frazeologik qo'shilmalardan boshqa alohida til birligi deb baho berilmaydi. Buning sababi idiomalar ko'chma ma'nolilik jihatidan frazeologizmlarga o'xshasa ham, ba'zan ularning bunday ma'noni uyushma tarzida emas, balki bir so'z doirasida ifodalashida bo'lsa kerak.

Tilning lug'at tarkibiga faqatgina so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi.

Frazeologik birliklarning ko'pchiligi lug'at va boshqa adabiyotlarda mujassamlashgan bo'lsa-da, G'arbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarida frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi.

Til ilmining rivojlanishida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilingan. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo'lsa-da, bu atama G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslarining ilmiy asarlarida ko'p ishlatiladi<sup>12</sup>.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganish masalasi atoqli rus tilshunosi E.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning ta'kidlashicha, leksika alohida so'zlarning ma'nosini, morfologiya so'zlarning shaklini, sintaksis esa so'z birikmalarining shaklini o'rganadi, uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida ma'lum bir so'z birikmalarining ma'nosini o'rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi.

E.D.Polivanov frazeologiyani tilshunoslikda mustahkam o'rin egallashga ishonchi komil edi va shunday bo'ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning

---

<sup>11</sup> Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.

<sup>12</sup> Vinogradov V.V. Leksikologiya va leksikografiya – M.:1977.

mustaqil sohasi sifatida o'rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan V.V.Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birliklarni semantik jihatdan guruhlariga ajratdi. Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyaning bo'limi sifatida qolaveradi, chunki frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'la olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagandi.

Shunday qilib, frazeologiyani leksikologiyaning bir bo'limi sifatida o'rganish davom etdi. E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so'ng birinchi bo'lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta'kidlab o'tdi.

A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya bo'limi doirasidan chiqqan, uning ko'lami va nufuzi ancha ortdi. Shunday qilib, hozirgi ko'pgina zamonaviy tillarda frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmoqda. Frazeologiya sohasida ko'plab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan, ilmiy ishlar qilindi. N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arhangelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirnitskiy, S.S.Gorelik, I.A.Melchuk, I.I.Rezvin kabi taniqli tilshunoslarning bu sohaga qo'shgan hissalarini buyukdir.

Frazeologiya tilshunoslikning umumiy sistemasiga kiruvchi mikrosistema hisoblandi. Tilshunos olim V.A.Arhangelskiy frazeologiya sistemasining xususiyatlarini shunday tavsiflaydi: sistemaning an'anaviyligi. Frazeologik sistema o'zida o'tmish merosini, qadriyatlarni aks ettiradi, u avloddan avlodga o'tadi. Sistemani tashkil qiluvchi frazeologik birliklarning ko'pligi, til va nutqning boyib borishi bu omilga asosiy sababdir.

Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari o'rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Shunday qilib, frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga bog'liq sistemadan tashkil topgan o'zaro munosabatlar sistemasi va tuzilish sistemasi.

Frazeologiyaning tadqiqot obyekti tilning frazeologik mikrosistemasi va uning qonuniyatlaridir. Lekin frazeologiyaga oid ko'pgina savollar, masalalar o'z

yechimini kutmoqda, frazeologik birliklarga oid qonuniyatlar to‘laligicha ochilmagan, frazeologik darajada va frazeologik ma’no tushunchalari yetarlicha asoslanmagan, qo‘shma so‘z va frazeologik birlik o‘rtasidagi chegara hamma vaqt aniq emas, frazeologiya va frazeomatika o‘rtasidagi farq aniq belgilanmagan.

Frazeologiya fan sifatida strukturaviy va semantik jihatdan turg‘un so‘z birikmalaridan tashkil topgan o‘ziga xos majmui<sup>13</sup>, N.M.Shanskiy takroriylikni frazeologik birlikning asosiy xususiyati deb hisoblagan<sup>14</sup>, E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov so‘zning nominativ xususiyatining frazeologik birlik tabiatiga tengligini ta’kidlab, frazeologik birlik ham so‘z kabi alohida predmet yoki hodisani anglatishini ta’kidlab, shu bilan birga, frazeologik birlik tushunchasidan matal va maqollarni chiqarib tashlaydi<sup>15</sup>. V.P.Jukov turli davrlarda frazeologik birliklarning asosiy differensial belgisi sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi: boshqa tillarga tarjima qilinmasligi, obrazlilik, leksema va semalarning mosligi, tarkibiy qismlar ichidagi bog‘lanishlar, idiomatiklik, nominatsiyaning yaxlitligi, tabiati, haqiqatga munosabati va boshqalar<sup>16</sup>. A.I.Molotkov frazeologiyaga tor yondashuvni qo‘llab, frazeologik birlikning bir qismi bo‘lgan holda, komponentlar so‘zning belgilarini yo‘qotishini va rus tilining frazeologik lug‘atiga faqat frazeologik birikmalar va frazeologik birliklar (idiomalar) kiritilganligini ta’kidladi. Bunday yondashuv tufayli frazeologik birliklardagi barqarorlik, obrazlilik va takrorlanuvchanlik xususiyatlari to‘liq inobatga olinmaydi. Bu kabi tor yondashuvlarda semantik tushuncha bilan cheklaniladi va frazeologizm birinchi navbatda semantik xususiyatga ega bo‘lgan hodisa sifatida tushuniladi – “so‘zlarning barqaror, semantik bo‘linmas birikmasi, yaxlit umumlashtirilgan majoziy ma’nosini qayta

---

<sup>13</sup> Буянова Л.Ю. Русский фразеологизм как ментально-когнитивное средство языковой концептуализации сферы моральных качеств личности: монография / Л.Ю. Буянова, Е.Г. Коваленко. М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. – 184 с. 7.

<sup>14</sup> Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка / Н.М. Шанский. – М.: Просвещение, 1985. – 260 с. 20-21.

<sup>15</sup> Верещагин Е.М. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. / Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров. – Изд. 4-е, перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с. 65.

<sup>16</sup> Жуков В.П. Русская фразеология: учебное пособие // В.П. Жуков, А.В. Жуков. – М.: Высшая школа, 2006. – 408 с.

ko‘rib chiqish asosida shakllanadi”<sup>17</sup>. Frazeologik birlik ma‘nosining yaxlitligi, frazeologiyani tor tushunish tarafdorlari tomonidan o‘rnatilgan ibora ma‘nosini uning tarkibiy komponentlari ma‘nolari yig‘indisidan “hosil bo‘lmasligi”, frazeologik birliklarni boshqa so‘z birikmalaridan ajratishning asosiy mezon sifatida aforizmlar, matal va maqollarni frazeologik birliklardan chiqarib tashlaydi, chunki E.A.Ivannikova, “ularning semantik mazmuni ularni tashkil etuvchi so‘zlarning ma‘nolaridan kelib chiqadi” deya hisoblagan.

N.Amosova frazeologik birliklarni tahlil qilar ekan, frazeologik birliklarni ularning komponentlaridan bittasi yoki hammasi ko‘chma ma‘noda kelishiga qarab, ikki xil guruhga ajratadi. U agar frazeologik birliklardagi komponentlarning biri ko‘chma ma‘noda kelsa, ularni “frazema”, agar hamma komponentlar ko‘chma ma‘noda kelsa, ularni – idioma deb atash fikrini ilgari suradi<sup>18</sup>.

Tilshunoslikda idiomatik qo‘shma so‘zlarga A.I.Smirniskiy tomonidan berilgan ta‘rif ahamiyatli. Olim ingliz tilidagi blackboard qo‘shma so‘zini semantik jihatdan tahlil qilib, uning idiomatiklik belgisini ochib beradi. Ushbu qo‘shma so‘z o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z quyidagicha tarjima qilinadi: black – qora, board – taxta. Ammo mazkur so‘zning asl ma‘nosi “sinf doskasi”dir. A.I.Smirniskiy har qanday qora rangdagi taxtaning sinf doskasi bo‘lavermasligi, sinf doskasi nafaqat taxtadan, balki boshqa materiallardan ham tayyorlanishini ta‘kidlaydi. Black board birikuvi so‘z birikmasi bo‘lib kelganda har bir komponentning mustaqil urg‘u olishi, ularning semantik jihatdan yaxlit ma‘no anglatmasligini ko‘rsatadi. Olim qo‘shma so‘zdagi idiomatiklikni umumiy ma‘nosining komponentlar ma‘no yig‘indisidan kelib chiqmasligi bilan izohlaydi.

XXI asrga kelib tilshunoslikda tilning boshqa birliklarida kuzatiluvchi idiomatiklik hodisasi ham maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshlandi. Jumladan, V.A.Plungyan so‘zning farqli xususiyatlaridan biri idiomatiklik ekanligini qayd etadi. U idiomatiklikda so‘z shaklning ma‘nolar munosabati uni

---

<sup>17</sup> Солодуб Ю.П. Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект): Учебник для студентов филологических факультетов и факультетов иностранных языков / Ю.П. Солодуб. – Изд. 2-е. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 264 с. 186.

<sup>18</sup> Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1961. 161.

tashkil qiluvchi morfemalar mohiyatiga zid ekanligini ta'kidlaydi. Olimning xulosasiga ko'ra, ko'p hollarda so'z yasovchi ko'rsatkichlar idiomatiklikning sababchisi bo'ladi, so'z shaklida andozaviylikning mavjud emasligi uning idiomatik uyg'unlikni hosil qilishi bilan xarakterlanadi<sup>19</sup>. Fikrimizcha, ushbu muammo muhokama qilinganda, so'z yoki frazeologizmlar shaklining idiomatik birikuvini e'tibordan chetda qoldirish kerak emas, idiomatiklik tamoyili so'zni ajratish uchun mutlaq mezon hisoblanmaydi.

Idioma tuzilishiga ko'ra so'z, so'z birikmasi va gap shaklida bo'lishi mumkin. Chunki idioma termini faqat frazeologik chatishmalar deb chegaralash mumkin, lekin shu tasnifda ko'chma ma'nosi tarkibidagi faqat bir so'zga asoslangan frazeologik qo'shilmalarni hisobga olinsa, idiomalarni yana turg'un uyushmalardan alohida so'zga o'xshashini ta'kidlash mumkin.

N.V.Arjanseva frazeologik chatishmalar ham idioma deb ataydi. Frazeologiya – (idioma) bu ma'nosi uning tarkibidagi komponentlar ma'nolaridan chiqarilmaydigan barqaror birikma<sup>20</sup>. Tarkibidagi bir yoki bir nechta komponentlarining o'zgarishini talab qiluvchi etimologik va denotativ ma'nolarning ziddiyatini leksik idiomalarning muhim xususiyati sifatida baholash mumkin.

Umuman, idiomalar, bir tomondan, asl ma'nosining tubdan o'zgarib ketishi jihatidan frazeologik chatishmalarga o'xshab ketadi, ikkinchi tomondan, bir so'zning ma'no taraqqiyotiga asoslanishi jihatidan frazeologik qo'shilmalarga o'xshab ketadi. Idiomalarni qaysidir ma'noda iboralardan o'sib chiqadi deyish mumkin. Chunki idiomaning yuzaga kelishiga qadimda sodir bo'lgan qaysidir voqea asos bo'lishi mumkin, keyinchalik esa asl ma'nosi unutilib idiomaga ko'chishi mumkin. Shu xususiyatni inobatga olib, idiomalarni ko'chma ma'nosi dastlabki ko'chma ma'nosidan uzoqlashib, ular bilan omonimlik darajasiga yetgan va faqat ko'chma ma'nodagina ishlatadigan so'zlarni idiomatik so'zlar deb

---

<sup>19</sup> Plungyan V.A. Obshchaya morfologiya: Vvedenie k problematike (General morphology: An introduction to the problem), Moskva: Editorial URSS, 2003, -p. 384.

<sup>20</sup> Аржанцева Н.В. Сложные слова со вторым компонентом-отглагольным существительным в немецком и английском языках и их соответствия в русском языке. Диссертация ... кандидата филологических наук. Казань, 2004.

aytishimiz mumkin. Demak, idiomatik soʻzlar turli sabablar orqali asl maʼnoning yoʻqolishidan kelib chiqadi.

Lingvistik terminlar izohli lugʻatida “idioma” terminiga quyidagicha taʼrif berilgan: idioma (yun. idioma – xususiyat, oʻziga xoslik) muayyan bir tilga xos boʻlib, boshqa tillarga aynan soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydigan til birligi. Idiomalar, odatda, koʻchma maʼnoga ega boʻladi va badiiy adabiyotda kinoya, qochiriq maʼnoli obrazlilikni yaratuvchi vositalardan biri sifatida qoʻllanadi. Idiomalarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning oʻsha tildagi muqobilini topish kerak boʻladi<sup>21</sup>.

Idiomatika – idiomalar haqidagi maʼlumot boʻlib, til birliklarining barchasida oʻz aksini topishi mumkin. Idioma asosan koʻchma maʼnoga ega boʻlgan, soʻz birikuvidan hosil boʻlgan milliy xoslangan ibora yoki frazeologik chatishmadir.

Tilda maqol ham, ibora ham, idiomatik soʻzlar ham semantik jihatdan bitta umumiylik asosida birlashadi, bu ham boʻlsa, barchasining idioma xarakteriga ega boʻlishidir. Shunday ekan, bu birliklarning barchasi bir oʻrinda mukammal oʻrganilishi uchun “Frazeologiya” boʻlimi “Idiomatika” deb nomlanishi maqsadga muvofiqdir deya taʼkidlaydi tilshunos olim B.M.Joʻrayeva<sup>22</sup>.

Lingvistik jihatdan idioma – til birligiga teng boʻlgan turgʻun soʻzlar majmuidir. Idiomalar lingvo-sotsial tarixiy hodisa boʻlib, til egalari tafakkurida kechgan lisoniy va nolisoniy jarayonda vujudga kelgan milliy xarakterdagi obrazli-ekspressiv ifoda mahsulidir. Idioma frazeologik birlik sifatida turgʻun strukturaga ega, uning semantik mazmuni ham yagona, turgʻun va qatʼiydir. Idiomaning shakllanishi tilning ichki tizimi hosilasidir.

Idiomalarning kelib chiqishi haqida keng miqyosda oʻrgangan va tahlil qilgan tilshunoslar baʼzi idiomalar oʻta mahalliylashganligini, ular hech qachon kichik jamoadan tashqarida qoʻllanilmasligini aytib oʻtadi.

---

<sup>21</sup> Большой энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия. 1998. – С. 171.

<sup>22</sup> Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филология фанлари д-ри (DSc) дисс... автореферати. — Самарқанд, 2019.

Idiomaga nisbatan qiyinchilik bilan farqlanadigan, komponentlari o‘zaro birlashgan, murakkab, ko‘p aspektli, munozarali, maqomi yetarlicha belgilanmagan, ikki yoki undan ortiq negizdan tashkil topgan, tuzilishi jihatidan lingvistik birikmaga teng, mazmunan so‘zga muqobil, tilda tayyor holda yaxlit mavjud bo‘lgan, takror qo‘llanuvchi, so‘zga ekvivalent, turg‘un so‘zlardan iborat kompleks, umumlashgan ma‘no anglatuvchi, turg‘un leksik-semantik birlik, yaxlit semantik xususiyatga ega bo‘lgan kommunikativ birlik, til elementlarining kombinatsiyasi, boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan til hodisasi va shu kabi ta’rif va tavsiflarni keltirish mumkin.

Idiomalar ham boshqa frazeologik iboralar kabi turg‘un iboralardan biri hisoblanib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, muloqotga o‘ziga xos jo‘shqin ruh bag‘ishlaydigan va yangi frazeologik ma‘no kasb etuvchi turg‘un birikmalardir. Ba’zi bir idiomalar ma’nosi boshqa bir so‘z bilan ham ifodalanishi mumkin, lekin idiomadagi konnotativ ma‘no, stilistik o‘ziga xoslik mazkur sinonim so‘z bilan to‘la qamrab olinmaydi.

Idiomalar ham frazeologizmlar va leksikalizatsiyalashgan so‘zlarning bir ko‘rinishidir. Shuning uchun bo‘lsa kerak idiomalar haqida gap ketganda, ularni frazeologizmlarning frazeologik chatishmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik qo‘shilmalar bilan birga to‘rtinchi turi ham deb, ulardan boshqa alohida til birligi ham deb baho beriladi. Bunga sabab idiomalar ko‘chma ma’nodilik jihatidan frazeologizmlarga o‘xshasa ham, ba’zan ularning bunday ma’noni uyushma tarzida emas, balki bir so‘z doirasida ifodalashida ham bo‘lsa kerak.

Taniqli frazeolog olim V.N.Teliya ushbu o‘ziga xoslik to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Idiomalar ko‘chma motivli so‘zdan ham farqlanadi. Ular semantik jihatdan so‘z orqali olingan aniq ma’noga ega, ammo idiomada so‘zlarning o‘ziga xos birikuvi alohida mustaqil denotatsiya va referent avtonomiyalarini yo‘qotgan holda yaxlit tarzda ishlaydi”<sup>23</sup>.

---

<sup>23</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты // – Москва: Язык русской культуры, 1996, – С. 86.

Idioma AQSh tilshunoslari Ch.Friz, Y.Bar-Xiller, J.Kats va I.Postala, Y.Nayda, M.Pei, Ch.Xokket, F.Palmer va boshqalar tomonidan ham o'rganilgan.

G'arb tilshunoslari idiomani keng qamrovda talqin qiladilar. Masalan, "Oxford dictionary of idioms" lug'atida idiomalar qatorida sodda so'z, yasama so'z, qo'shma so'z va frazeologik birliklar beriladi.

Darhaqiqat, idiomatik qo'shma so'zlar til sohiblariga tanish komponentlardan yasaladi, komponentlar o'zga tillardan olinmaydi. Bu jarayonda til birliklarining o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Ch.Filmor "Inson idiomatik birliklarni tushunish uchun til haqidagi barcha narsalarni bilishi kerak"ligini ta'kidlaydi<sup>24</sup>.

Inson muloqot jarayonidagi barcha birliklarni to'la-to'kis tushunishi uchun o'z tilini mukammal bilishi talab qilinadi. Binobarin, til sohiblarigina uning barcha imkoniyatlaridan to'laligicha foydalana oladi.

XIX asrning uchinchi choragida tilshunoslikda "idiomatiklik" termini qator tadqiqot ishlarining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Mazkur terminni ilk bor Sh.Balli frazeologik birliklarga nisbatan qo'llagan. Uning qayd etishicha, "idiomatiklik – semantik jihatdan birlamchi lug'aviy ma'nosini yo'qotish natijasida bir-biridan o'zaro bo'linmaydigan hosil bo'lgan frazeologik birlikdir"<sup>25</sup>.

Idioma terminiga to'xtalishdan oldin idiomatiklik terminiga to'xtalish lozim. Dunyo tilshunosligida idiomatiklik termini keng tarqalgan va lug'aviy ma'nosini o'zgartirish natijasida hosil bo'lgan frazeologik birliklarga nisbatan qo'llaniladi.

Rus tilshunosligida idiomatika terminiga I.E.Anichkov izoh bergan. U bu haqida quyidagilarni bayon qilgan: "Men so'zlarning birikishini "Idiomatika" fani deb nomlashni taklif qilaman. Bu fan so'z birikmalarini o'rganadi, sintaksisdan farqli o'laroq so'zlarning formal birikmalarini tekshiradi"<sup>26</sup>.

I.E.Anichkovning ta'rifiga ko'ra, so'z birikmasi va gap shaklidagi birliklar idiomatiklik termini ostida o'rganilishi lozim.

---

<sup>24</sup> Filmore Ch.J., Kay P., O'Connor M.C. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone. – Language, 1988. – vol. 64. N.3. – pp. 501-538.

<sup>25</sup> Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Издательство Иностранная литература. 1961. – С. 344.

<sup>26</sup> Аничков И.Е. Идиоматика и семантика (Заметки, представленные А.Мейе, 1927) пер. с франц. Выдрин В.Ф. Вопросы языкознания 1992. №5. – С. 140.

A.N.Baranov, D.O.Dobrovolskiylar: “Idiomaning keng tarqalgan talqini uchta asosiy xususiyatni o‘z ichiga oladi: komponentlarning qat’iy tartibda joylashuvi va idiomatikligi; idiomatiklik, birinchidan, ularning ma’nosini qayta anglanishi bilan, ikkinchidan, shaffof emasligi hamda komponentlarning ma’nolaridan idiomaning ma’nosini chiqarib bo‘lmasligi bilan tavsiflanadi”<sup>27</sup>, — deb hisoblashadi.

I.A.Melchuk “Turg‘unlik va idiomatiklik terminlari haqida” deb nomlangan maqolasida idiomatiklik hodisasiga shunday ta’rif beradi: “Tarjima jarayonida birikma tarkibidagi faqat bitta so‘z sababli butun birikmaning muqobili tanlansa, birikma idiomatik hisoblanadi. Bu so‘z alohida holda kelib boshqa ma’no ham anglatishi mumkin”<sup>28</sup>.

Tilshunoslikda idiomatiklik termini eng keng o‘rganiladigan soha bu ikki til doirasidagi tarjima qilish muammolarini o‘rganuvchi yo‘nalishdir. Shu sababdan ko‘plab ta’rif va tavsiflarda boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydigan birlik deb ta’riflanadi.

A.A.Reformatskiy idiomatiklik terminiga quyidagicha ta’rif beradi: “Leksikalizatsiyalashgan so‘z birikmalari hosil bo‘lishiga ko‘ra jamiyatning hududiy va davriy ma’lum bir voqea-hodisasi bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli individuallik va maxsuslik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Shuning uchun ularni boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Bunday til birligi tilshunoslikda idioma, ularning umumiy holati esa idiomatika deb yuritiladi”<sup>29</sup>.

Demak, idiomatika tildagi ma’lum birlikni o‘rganishning umumiy nomi bo‘lib, u o‘rganadigan til birligi idiomalar deb nomlanadi.

A.A.Bulaxovskiyning fikricha: “...idioma boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydigan milliy-madaniy o‘ziga xos til birligi sifatida belgilanadi”<sup>30</sup>.

---

<sup>27</sup> Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Внутренняя форма идиом и проблема толкования // Известия АН РФ. Серия литературы и языка. Т.57. №1. 1998. – С. 36-44.

<sup>28</sup> Мельчук И.А. О терминах “устойчивость” и “идиоматичность” // Вопросы языковедения. 1960. №4. – С. 76.

<sup>29</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект пресс. 2006. – С. 128.

<sup>30</sup> Бухаловский А.А. Введение в языкознание. – М.: Учлеприз. 1954. – С. 20.

Y.S.Maslovning qayd etishicha, idiomalarning butun ma'nosi komponentlar ma'nosidan kelib chiqmaydi. Yaxlit ma'noning komponentlar umumiy ma'nosiga to'g'ri kelmasligi idiomatiklikdir<sup>31</sup>.

Idiomalar boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, tarjima qilinganda ham uning ko'chma ma'nosi tushunilmaydi.

“Longman dictionary of English Language and Culture (Ingliz tili va madaniyati izohli lug'ati)”da idiomaga quyidagicha ta'rif berilgan: yasama frazaning ma'nosi uni tashkil qiluvchi so'zlarning ma'nosidan butunlay boshqa bir ma'noni anglatadi<sup>32</sup>.

S.A.Abakumiv, V.V.Vinogradov, M.D.Gorodnikova, I.I.Chernishevalarning ishlarida birikmaning semantik yaxlitligi va uni boshqa tilga tarjima qilib bo'lmashligi, butun bir iboraning ma'nosini uni hosil qiluvchi so'zlarni jamlash orqali tushunish mumkin emasligi haqidagi qarashlar frazeologik birliklarga xosligi bayon etilgan.

V.N.Teliya idiomatiklashuv jarayonining, avvalo, metaforik ko'chishlar orqali ro'y berishi, bunda so'zlovchi o'z nomiga ega bo'lmagan narsa, belgi, jarayon, holat va shu kabilarni nomlash maqsadida tilda mavjud bo'lgan o'xshash mohiyatlarga murojaat qilishi haqida fikr yuritgan<sup>33</sup>.

Frazeologik birliklarni tasniflashda asos sifatida akademik V.V.Vinogradov qarashlaridan foydalaniladi, biroq turli tasniflarga ko'ra, frazemalarni o'rganish masalasi keng (N.F.Alefirenko, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy) va tor yondashuv (V.P.Jukov, A.M.Babkin)lar asosida ko'rib chiqilgan. Keng yondashishda idioma va frazema (yagona semantik birlikni tashkil etuvchi fe'l va yordamchi bo'lak yoki predlogdan iborat birikma)lar frazeologik birliklarning ekvivalenti hisoblanadi, bu esa “kollokatsiya” tushunchasi ko'lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Lekin kollokatsiya atamasini ilmiy tavsiflash muammosi xorijiy tilshunoslikda yetarlicha yoritilmagan.

---

<sup>31</sup> Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: “Высшая школа”, 1987. – С. 118.

<sup>32</sup> Longman dictionary of English Language and Culture. New edition. – London: Pearson Longman. 2006. – P. 693.

<sup>33</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. –М.: Школа “Языки русской культуры”. 1996. –С. 133-134.

Inson aynan jamoaviy bilim asosida tilda idiomatik birliklarni yaratadi, chunki har qanday tilning idiomatik qatlami tilda allaqachon mavjud bo‘lgan til birliklari va olam haqidagi bilimlar asosida shakllanadi. Umuman, o‘tgan asr tilshunosligida idiomatiklik, asosan, struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan. Jumladan, D.Sanford idiomatik ifodalar (iboralar) tarkibidagi so‘zlardan umumiy ma’no kelib chiqmasligini qayd etadi<sup>34</sup>.

Ingliz tilida ham idiomalarni tasniflash borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, R.Mun ingliz idiomalarini funksional jihatdan besh guruhga ajratadi:

1. Axborot idiomalari.
2. Baholash idiomalari.
3. Vaziyat idiomalari.
4. Modallashgan idiomalar.
5. Tashkillashtiruvchi idiomalar<sup>35</sup>.

Bundan tashqari, A.V.Kunin tomonidan ingliz frazeologiyasining turli ma’noviy bo‘limlari tasniflandi. Bular: idiomatika, idiofrazematika va frazematika<sup>36</sup>.

Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho‘ponzoda va F.Og‘azoda “Turk tili grammatikasi” asarida til ilmining bo‘limlari haqida fikr yuritib, “Semasiologiya”, “Stilistika” atamallari bilan bilan birga o‘sha davrda tilshunoslikda keng qo‘llanishda bo‘lgan “idiomatizm” atamasiga qarshi o‘laroq “idiotizm” so‘zini ishlatgan. Mualliflar bu asarida turk tilidagi idiomalarga oid boshga solmoq, boshga tushmoq, ko‘z ko‘rmoq, ko‘zum (sendin) suv ichmoq kabi birliklarni misol sifatida keltiradilar.

Ozarbayjon tilshunosi S.Ja’farov “Hozirgi zamon Ozarbayjon leksikasi” monografiyasida frazeologiya tarkibiga idiomalarni kiritish tarafdori sifatida turg‘un so‘z birikmalarini idiomalar, hikmatli so‘zlar, iboralar, otalar so‘zi va

---

<sup>34</sup> Daniel Sanford. Metaphor and phonological reduction in English idiomatic expressions // Cognitive Linguistics. – Berlin/New York, 2008. vol. 19, N 4. – pp. 585–603.

<sup>35</sup> [https:// booknlime.ru](https://booknlime.ru). Петросян И.В.История изучения фразеологизмов и идиом.

<sup>36</sup> Қаранг: <https:// booknlime.ru>. Петросян И.В.История изучения фразеологизмов и идиом.

zarbulmasallar kabi besh guruhga ajratadi. Idiomalarni tartiblashda yana sobit bo'lgan va sobit bo'lmagan turlarga bo'lib tasniflaydi. Sobit bo'lgan idiomalarni ham 3 turga bo'ladi: a) qovushma idiomalar; b) birlashma idiomalar; c) uyushma idiomalar<sup>37</sup>.

Turli tillarning ichki xususiyatlariga ko'ra idiomalarning tasnifi turlicha. Bu ularning korpusda aks etishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, F.P.Kauai va R.Makkina idiomalarni semantik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra 4 guruhga bo'lgan:

1. Xususiy idiomalar.
2. Metaforik idiomalar.
3. Yarim idiomalar.
4. Ochiq kollokatsiyalar<sup>38</sup>.

Rus tilshunosligida bo'lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma'noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Jumladan, akademik S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, so'zlarning noidiomatik, turg'un frazeologik guruhlari va juft so'zlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg'unlik va tilda tayyor holda mavjudlikdir. S.K.Kenesboyev turg'un so'z birikmalari orasidan frazeologiyani tor ma'noda tushunish uchun bevosita asos bo'la oladigan guruhlarni alohida ajratib ko'rsatadi. Bunday guruhlarga idiomatik va noidiomatik birikmalar, frazemalar hamda qo'shma juft oborotlar kiradi. Olim idiomatik birikmalarning boshqa tip turg'un birikmalardan, jumladan maqol va matallardan farqini ham alohida belgilashga intiladi. Tadqiqotchining fikricha, idiomalarning semantik o'ziga xosligi ularning nutqda yaxlit (ustama) ko'chma ma'noda qo'llanilishi, bu ustama ma'no komponentlari anglatgan ma'noga aloqador emasligi bilan belgilanadi. Maqol va matallar esa o'z semantikasiga ko'ra mustaqil jumla (высказывание) hosil qiladi. Idiomalar S.Kenesboyev talqinicha, maqol va matallardan farq qilib,

---

<sup>37</sup> Жаъфаров С. Ҳозирги замон озарбайжон тили лексикаси. — Боку, 1958.

<sup>38</sup> Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. — Vol. 2. Phrase, Clause and Sentence Idioms. — Oxford University Press, 1983.

cheklangan tarkibdagi komponentlardan tuziladi. To'g'ri, maqol va matallar semantikasini idiomalar semantikasidan farqlashda miqdoriy mezon (komponent tarkibi) ma'lum rol o'ynashi mumkin. Ammo frazemalar tiplari orasidagi semantik farqlarni belgilashda miqdoriy mezondan ko'ra, bulardagi leksik-semantik munosabatlar belgilovchi omil sanaladi.

Idiomaga frazeologik birlik turlaridan biri sifatida ta'riflar berilgan o'rinlar ko'p. Idiomatic iboralar muayyan tillarga xos iboralardir. Ulardan foydalanishda ular ajralmas va birlashtirilgan ma'noga ega bo'lib, odatda boshqa tillarga aniq o'tishga qodir emas va tarjimada shunga o'xshash stilistik rangni almashtirishni talab qiladi. L.A.Bulaxovskiy idiomalarni frazeologik birliklardan ajratish kerak deb hisoblaydi. R.A.Budagov idiomalarni frazeologik birikmalar bilan aniqlaydi. Professor A.A.Reformed erkin bo'lmagan so'z birikmalarining barcha turlarini leksikalashgan birikmalar deb ataydi va ularni idiomalarning umumiy tushunchasi ostida birlashtiradi.

Idioma tushunchasi bilan bog'liq ravishda qator muammolar, xususan frazeologizm o'zi nima, "idioma" va "idiomatika", idiomatiklik spesifikasi, idiomalarning bir so'zga muqobildorligi, turg'un so'z birikmalar metaforikligi va obrazlilik, semantik motivlashmaganlik va anomaliya, idiomada "ma'nolar ko'chishi" yoki "semantik yangilanish", ba'zi idiomalarni o'zga tillarga o'girib bo'lmaslik yoki o'girishning juda qiyin kechishi, idiomalardagi ekspressivlik, so'zlarning ekvivalentligi kabi masalalar ilmiy yechimini topish dolzarblik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat o'zbek tilida, balki fransuz, ingliz, nemis, rus, ispan, italyan va boshqa tillarda ham turli xil sohalarda o'ziga xos idiomalarga duch kelish mumkin. Shuning uchun dunyo tilshunosligida bu mavzuga qiziqish ko'p yillardan buyon yuqoriligicha qolmoqda. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan eng katta muammo bu boshqa tildagi idiomaning muqobilini topish yoki o'sha idioma beradigan ma'noni o'z tilida ifodalashdir. Shu jihat ham mazkur til birligini tadqiq etish tilshunoslik uchun muhim ekanligini ko'rsatadi.

## 1.2. O‘zbek tilshunosligida idioma tadqiqiga oid tadqiqotlar sharhi

Til insonning dunyo haqidagi bilimlarini shakllantirish va tizimlashtirishning eng muhim qurollaridan biridir. Faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirgan shaxs bilish natijalarini so‘zda mustahkamlaydi. Tilning frazeologik tarkibi imoishora tizimining eng o‘ziga xos qismidir, chunki madaniyat haqidagi bilimlarni to‘playdi va xalqning madaniy va tarixiy tajribasini va ushbu tilning rivojlanish xususiyatlarini eng aniq aks ettiradi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish XX asr 50-yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinjasov, M.Hasanov, I.Qo‘chqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. O‘zbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning qo‘shgan hissasi ulkandir. Bu olim o‘zbek iboralarining grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U o‘zbek tili frazeologik birliklarini lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni boshlab berdi. Uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo‘lgan “Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari” (1955), “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” (1966), “Nutqimiz ko‘rki” (1970), “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978) kabi qator ilmiy asarlari o‘zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O‘zbek frazeologiyasining xuddi ingliz frazeologiyasi kabi o‘rganish obykti masalasi atrofida hali ham munozara bo‘lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boylikni turli nuqtalardan yondashib o‘rganishni davom ettirmoqda. Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan grammatik va semantik jihatdan bo‘linmaydigan va odatda so‘z ekvivalenti bo‘lgan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi<sup>39</sup>.

Frazeologizmlar ham tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi doirasida o‘rganiladi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramasdan, ular yagona umumiy ma’no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma’no ifodalaydi.

---

<sup>39</sup> Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning funktsional – uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T.:1993- 47b.

Frazeologizmlar badiiy adabiyotlarda obrazli va ta'sirchan ifoda vositasi sifatida mahsuldor qo'llaniladi.

Frazeologizmlar uch xil bo'ladi:

– frazeologik qo'shilmalar;

– frazeologik butunliklar;

– frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib, birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi: *hordiq chiqarmoq, so'zida turmoq, holdan toymoq* kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nosi va grammatik jihati birikib, umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: *ko'kka ko'tarmoq – maqtamoq, eti suyagiga yopishgan – ozg'in* kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: *sichqonning inini ijaraga olmoq, sichqonning ini ming tanga bo'lmoq, oyog'ini tirab olmoq* kabi.

Frazeologik qo'shilma va butunliklar so'zlarni o'zaro biriktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarining komponentlarini almashtirish mumkin bo'lmaydi. Idiomalar ham boshqa frazeologik iboralar kabi turg'un iboralardan biri hisoblanib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, muloqotga o'ziga xos jo'shqin ruh bag'ishlaydigan va yangi frazeologik ma'no kasb etuvchi turg'un birikmalardir. Ba'zi bir idiomalar ma'nosi boshqa bir so'z bilan ham ifodalanishi mumkin, lekin idiomadagi konnotativ ma'no, stilistik o'ziga xoslik mazkur sinonim so'z bilan to'la qamrab olinmaydi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, uzoq davr mobaynida frazeologik lug'atlar mualliflari turg'un so'z birikmalarini idiomalar deb tasnif qilganlar. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tilshunoslar birikmalarni, xususan, frazeologik

birikmalarni idioma deb hisoblaydilar. Bu borada keyingi boblarda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Idiomalar frazeologiyaning “o‘ziga xos” qismini tashkil qiladi. Idiomalar nominativ vazifasiga ko‘ra so‘zlarga teng bo‘lib, so‘zlar kabi semantik jihatdan yaxlitdir. Bundan tashqari, aksariyat idiomalar ifoda bo‘yog‘iga ega (ko‘p birikmalardan farqli o‘laroq). Biroq, idiomatik va frazeologik birliklarning boshqa turlari o‘rtasida aniq chegaralarni ajratib bo‘lmaydi: idiomatika doirasida har jihatdan emas, balki bir jihatdan idiomatik bo‘lgan turg‘un iboralar tomonidan tuzilgan statik “yadro” va morfologik, leksik va semantik, sintaktik butunlik mavjud.

Idiomani boshqa frazeologizmlardan ajratib, farqlab olish uchun turli lug‘atlarda unga berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Shu sababli uning qator olimlar tomonidan izohlangan bir qancha ta’riflariga duch kelamiz.

Xususan, akademik A.Hojiyev: “Idioma (*yunoncha idioma-o‘ziga xos ifoda, ibora*) ayn. frazeologik chatishma yoxud ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmaydigan, hatto unga zid ma’no ifodalaydigan frazeologik birliklar”, – deb yozadi va bunga *oyog‘ini qo‘liga olmoq* (juda tez yurmoq, yugurmoq) kabi misollarni keltiradi. Shuningdek, o‘zbek tilining izohli lug‘atida idiomaga: “Ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlar ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi, ixcham ibora”, – deb ta’rif beriladi.

O‘TILning 2006-2008 yillardagi nashrida esa – Idioma [yun. *idioma* – o‘ziga xoslik, xususiyat] t.lsh. Ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi, ixcham ibora; frazeologizmlarning bir turi deb aytiladi va *tomdan tarasha tushgandek, og‘zingga qarab gapir* misollari keltiriladi. Bundan farqli, N.Mahkamov, I.Ermatovning maktab va kollej o‘quvchilari uchun maxsus tuzilgan “Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati”da idiomaga birmuncha kengroq tavsif berilgan:

Idioma – (yunoncha *idioma* — o‘ziga xos ifoda, ibora) shaklan mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan fikr, voqea, hodisalarning ifodalanishi. Ular ma’lum tilgagina xos bo‘lib, boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi<sup>40</sup>.

Idiomalar shaklan leksik qatlamga oid so‘zlar bilan omonimlik hosil qilsada, mazmunan o‘zgachalik ifodalaydi. Uni boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin, biroq bunda idiomaning leksik qatlamga oid ko‘rinishidagi ma’nosi anglashiladi.

Sh.Rahmatullayev idiomaga quyidagicha tavsif beradi: “...idioma ham tarkibli til birligi, lekin uning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi”<sup>41</sup>.

Idioma til birligi sifatida ma’lum tarkibga ega bo‘ladi va uning tarkibidagi so‘zlar birikmasi semantik jihatdan o‘zgachalik kasb etishi lozim.

Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.E.Mamatov qarashlariga tayanib quyidagilarni yozish mumkin: “Idioma borasida qiyinchilik bilan farqlanadigan, komponentlari o‘zaro turg‘un birlashgan, murakkab, ko‘p aspektli, munozarali, maqomi yetarli belgilanmagan, ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tashkil topgan, tuzilishi jihatidan lingvistik birikma, yoki gapga teng, mazmunan so‘zga muqobil, tilda tayyor holda yaxlit mavjud bo‘lgan, takror qo‘llanuvchi, qurilishi jihatidan bir ma’noli idiomaning turli shakllarni olib kelishi mumkinligi, tuzilishi jihatidan ba’zan o‘zgaruvchan, so‘zga ekvivalent, so‘zlar majmuasi, turg‘un ibora, turg‘un so‘zlardan iborat kompleks, umumlashgan ma’no anglatuvchi, turg‘un leksik-semantik birlik, ko‘p komponentli yaxlit semantik xususiyatga ega bo‘lgan kommunikativ birlik, til elementlarining kombinatsiyasi, tarjima qilib bo‘lmaydigan til hodisasi”dir<sup>42</sup>.

Leksik-frazeologik tipdagi idiomalar, S.N.Muratov tasnifiga ko‘ra, ikki guruhdan iborat. Birinchi guruhga leksikalizatsiyalashgan yoki terminlashgan so‘z birikmalari kiradi. Masalan, *shayton chirog‘i*, *Yangi yer* kabi. Ikkinchi guruhga esa

---

<sup>40</sup>Qarang: Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Фил.фан.бўй.фалс.доктори.диссер. –Термиз. 2021.

<sup>41</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – Б. 4.

<sup>42</sup> Раҳимова Ш. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. афтореф., Тошкент, 2019, 13-бет.

birinchi komponenti mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan, faqat shu frazeologik matndagina qoʻllanadigan turgʻun soʻz birikmalari mansubdir: *shim bal (toza asal)*, *quyma yomgʻir* kabi. Sof frazeologik tipdagi idiomalarga S.N.Muratov obrazli turgʻun soʻz birikmalarini kiritadi. Bu tipga, shuningdek, maqol, matallar, topishmoqlar va koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan barcha obrazli boʻlmagan birikmalar ham kiritilishi mumkin. Bunday turgʻun soʻz birikmalarining asosiy vazifasi nutqda tasviriylik va obrazlilikni yanada kuchaytirishga xizmat qilishdan iborat.

Idiomatik til birliklarini tahlil qilish ularning ikkilamchi interpretatsiya natijasida qanday shakllanganligini aniqlashga imkon beradi. Biroq idiomatik birliklar oʻz-oʻzidan hosil boʻlmaydi, ular olamni bilishning ikkilamchi interpretatsiyasiga asoslanadi. Har bir til egasi olamni oʻziga xos tarzda idrok etadi. Idiomatik birliklarni oʻrganish predmetning qaysi xususiyati aniq va oʻziga xos holatda qabul qilinishini aniqlash imkonini beradi. Inson olgan bilimlari asosida vaziyatni qiyoslaydi va baholaydi, soʻng uni nutqda verballashtiradi. Shunday qilib, olamni idrok etish, bilish va tasniflash usullarining kombinatsiyasi va olam haqidagi bilimning ikkilamchi interpretatsiyasi til egalarining madaniyati, urf-odatlar va tarixiga hurmat koʻrsatadigan tilning noyob idiomatik birliklarini shakllantirishga olib keladi.

Idiomatik birliklar tilning oʻziga xos imkoniyatlarini namoyish etadi, shu bilan birga, til sohiblarining olam haqidagi tasavvurlari, uni qay tarzda idrok etishi haqida ham maʼlumot beradi. Gʻ.Salomov haqli ravishda qayd etganidek, “tilning asl qaymogʻi, uning oʻziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini koʻrsatadigan, boshqa tillar oʻrtasida tutgan oʻrnini tayinlashda muhim omil boʻlgan narsa – idioma va boshqa shu kabi koʻchma maʼnoli birikmalardir”<sup>43</sup>.

Til birliklari til egasi tomonidan yaratiladi, uning milliyligi va madaniyatini koʻrsatuvchi koʻzgu vazifasini bajaradi. Tilda mavjud idiomalar mavjud tilning yuksalish darajasini va tillar tizimida tutgan oʻrnini belgilashda muhim. Idiomatik

---

<sup>43</sup> Саломов Ф. Мақол ва идиомаларнинг таржимаси. – Т.: “ФАН”, 1961. – Б. 18.

birliklar insonning olam haqidagi bilimini verballashuvi natijasida ikkilamchi interpretatsiya hosilasi sanaladi.

Ma'lumki, idiomaning qamrov doirasi tilshunoslikda turlicha belgilanmoqda. S.I.Ojegov, A.I.Yefimov, G'.Salomovlar maqol, matal, qanotli so'zlar, ko'chma ma'noga asoslangan turli xarakterdagi obrazli ifodalarning barchasini idiomalar deb ataydi. S.I.Abakumov, N.M.Aleksandrovlar idiomatika va frazeologiyani farqlaydi, L.I.Royzenzon, A.A.Reformatskiylar idiomatiklikni iboralarga xos xususiyat hisoblaydi, V.V.Vinogradov, Sh.Rahmatullaevlar tadqiqotlarida esa idioma so'zi frazeologik chatishma atamasining ekvivalenti sifatida ishlatiladi. Turk paremiologlari Tohir Nejat Genjan, Kamol Ayyubo'g'lilar maqol hamda idiomani o'zaro farqlab, idioma nomi ostida iborani tushunadi<sup>44</sup>.

Sh.Rahmatullayev o'zbek tili frazeologiyasining nazariy masalalarini ilmiy tadqiq etishni boshlab, frazeologik birliklarning tarkibiy va semantik turlarini aniqlagan. Olim o'z asarlarida V.V.Vinogradovning frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma struktural-semantik tasnifini rivojlantirib, uni o'zbek tiliga tatbiq etgan. U frazeologik birliklarni idiomatik birikmalar, erkin va turg'un so'z birikmalariga ajratgan.

Sh.Rahmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasida *so'fi, qiyomat, qiyomatda, oxiratda, latta, tuzlamoq, qovurmoq* singari ko'chma ma'nosi asl, boshlang'ich ma'nosidan uzoqlashib, o'zaro omonimlik darajasiga yetgan yoki asl, to'g'ri ma'noda qo'llanishini deyarli yo'qotib, ko'chma ma'nodagina ishlatiladigan so'zlar frazeologik yoki idiomatik so'zlar deb atalgan edi<sup>45</sup>.

Biz idioma sifatida belgilagan birliklar, asosan, birikma tarzida ifodalanadi. Ikki leksik birlikning ma'lum ma'no ifodalash uchun birikishi natijasida idiomalar hosil bo'ladi.

Sh.Rahmatullayev o'zining idiomatik so'zlar haqidagi fikrini yanada rivojlantirib, ishning yana bir o'rnida *ona karnay, odamovi, nonko'rlik, jonkuyar,*

---

<sup>44</sup> Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филология фанлари д-ри (DSc) дисс... автореферати. — Самарқанд, 2019. — Б. 13.

<sup>45</sup> Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик birlikларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. ном. дисс. — М., 1952. — Б. 52.

*jonkuyarlik, tilyog'lama, tilyog'lamachilik, uzunquloq, ikkiyuzlama, o'zboshimcha, o'zboshimchalik, sansalorlik, mish-mish, xaspo'shlamoq, bichib-to'qimoq, man-manlik* kabi til birliklarini etimologik jihatdan qo'shma so'zga teng idiomatik so'zlar deb tahlil qilgandi<sup>46</sup>.

M.Ro'ziqulovning "O'zbek tilida idiomalar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining alohida bobini "Idiomalar stilistikasi va sinonimikasi" deb nomlagan edi. Muallif ishda quyidagi idiomalarni o'zaro sinonim deb hisoblaydi: *pehonasi qattiq – pehonasi sho'r; manglayi sho'r – manglayi qattiq; dimog'i ko'tarildi – dimog'i shishdi; yuragi bo'shadi – ko'ngli bo'shadi; boshini tikdi – jonini tikdi; po'k berdi – og'zidan gulladi* kabilar<sup>47</sup>. Keltirilgan misollardan ayon bo'ladiki, M.Ro'ziqulova sinonim idiomalar bilan variant idiomalar orasidagi aniq farqli belgilarni ajratib ko'rsata olmagan.

Frazeologik chatishmalar – idiomalar milliy xoslangan, motivlangan, o'ziga xoslikni belgilovchi turg'un birikmalardir<sup>48</sup>.

Ko'rinadiki, idioma termini ayrim so'zni ham, so'zlar uyushmasini ham o'z ichiga oladi. Chunki idioma terminining ma'nosini frazeologik chatishmalar doirasi bilan chegaralash mumkin, lekin shu tasnifda ko'chma ma'nosi tarkibidagi faqat bir so'zga asoslangan frazeologik qo'shilmalarni hisobga olinsa, idiomalarni yana turg'un uyushmalardan yakka so'zga tomon tortadi.

Umuman, idiomalar, bir tomondan, ma'no taraqqiyotiga ko'ra, frazeologik chatishmalarga o'xshab ketsa, ikkinchi tomondan, bir so'zning ma'no taraqqiyotiga asoslanishi jihatidan frazeologik qo'shilmalarga o'xshab ketadi.

Idiomalar va frazeologik chatishmalar og'zaki so'zlashuv nutqqa xos bo'lganida dialektizmlar, nutqiy xosliklar, evfemizmlar va ba'zan vulgar shaklli birliklardan tashkil topadi. Tarkibi evfemizmdan tashkil topgan idiomalar, frazeologik birliklar tilshunos olim A.J.Omonturdiyevning "Chorvachilikka oid so'z va atamalarining qisqacha tematik evfemik lug'ati"da keltirilgan. Masalan,

---

<sup>46</sup> Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик birlikларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – М., 1952. – Б. 52.

<sup>47</sup> Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. Самарканд, 1966. — 22 с.

<sup>48</sup> Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Фил. фан. бўй. фалс. доктори. диссер. – Термиз. 2021. – Б. 32.

*yostig'ini quritmoq* (qirib tashlamoq, o'ldirib yubormoq), *baland oxurdan yem yegan* (boy kishilar bilan muloqotda bo'lgan), *qo'y ko'rmagan bo'lsa ham qiy ko'rgan* (badavlat, obro'li xonadonning farzandi) kabi evfemik idiomalarni keltirish mumkin. Dialektal frazeologizmlarga, asosan, sheva va lahjalarda uchraydigan idiomalar tegishlidir<sup>49</sup>.

Ko'chma ma'nosi dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, ular bilan omonimlik darajasiga yetgan yoki turg'un ma'noda qo'llanilishini deyarli yo'qotib, ko'chma ma'nodagina ishlatadigan so'zlar idiomatik so'zlar deyiladi. Demak, idiomatik so'zlar so'zlarning omonimik holatidan yo turli sabablar orqali konkret ma'noning mavhumlashishidan kelib chiqadi.

Bir so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishiga ko'ra frazeologik qo'shilmalar bilan idiomalar bir-biriga o'xshaydi, lekin ma'no ko'chishi ularning har birida har xil kechadi. Shu sababli ular bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar:

1. Idiomatik so'zda ko'chma ma'no bir so'zning o'ziga bog'liq bo'ladi: *Ha, bu gaping joyida. Kecha yig'ilishda rosa tuzlashdi* kabi. Frazeologik qo'shilmada ko'chma ma'no iboradagi har ikki so'zga bog'liq bo'ladi: *Sizga aytadigan ochiq gapim shu.*

2. Idiomatik so'zlarda dastlabki leksik ma'no unutiladi, dastlabki ma'no bilan idiomatik ma'no o'rtasidagi aloqa uzilish darajasiga keladi: *Bu gal jinday yon berdi, mendan zig'ircha ham yaxshilik kutma* kabi. Bu jihatdan idiomalar qisman frazeologik butunlikka ham o'xshab ketadi: *otday bo'lib ketdi* kabi. Lekin farq shundaki, bu iboradagi "otday" so'zini idioma sifatida iboradan ajratib bo'lmaydi. Frazeologik qo'shilmalar odatda bir so'zning ikki ma'nosi – to'g'ri va ko'chma ma'nolariga asoslanadi.

3. Idiomatik so'zlarning ma'no taraqqiyoti so'zlarni omonimlik darajasiga olib keladi: *latta* – materiya, *latta* – bo'shang, *tulki* – hayvon, *tulki* – ayyor kabi.

---

<sup>49</sup> Омонтурдиев. А.Ж. Чорвачиликка оид сўз ва атамаларнинг қисқача тематик эвфемик луғати. — Тошкент, 2015.

Frazeologik qo‘shilmalarda esa ma’no taraqqiyoti bu darajaga yetmaydi: oshning tuzi, gapning tuzi va b.

Idiomatik so‘zlar o‘z ma’no taraqqiyotiga ko‘ra frazeologik iboralarga, ayniqsa, frazeologik chatishmalarga (bir so‘zga tengligi jihatidan) o‘xshaydi, lekin idiomalarda dastlabki ma’no bilan ko‘chma ma’no o‘rtasidagi aloqaning bir-biridan uzoqlashuvi iboralardagiga nisbatan kuchli bo‘ladi.

Idiomalarga tegishli mavjud tavsiflar frazeologik birlikning idioma sifatiga o‘tishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishini isbotlaydi:

- faqatgina bir tilgagina xos bo‘lib, boshqa tilga aynan tarjima qilinmasligi;
- milliy koloritga ega bo‘lishi;
- idioma ma’nosi komponentlari mazmunidan tubdan farq qilishi;
- ikki va undan ortiq so‘z va so‘z birikmasidan tuzilib, sintaktik jihatdan bir bo‘lakka teng bo‘lishi, gap tarkibida bir so‘z birligiga teng kelishi;
- komponentlarning barchasi ko‘chma ma’noda kelishi;
- boshqa tillarda muqobillarining mavjudligi (ammo so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmasligi ahamiyatlidir)<sup>50</sup>.

Tildagi idioma hodisasi ham ko‘chma ma’noga asoslanadi. Idiomada, odatda, hayotiy bo‘lmagan hodisa, harakat, holatlar tasvirlanadi. Idiomalar asosan kundalik muloqotda qo‘llaniladi. Bunday idiomalar tezda yodda saqlanib qolib, fikrni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tilining milliyliги va o‘ziga xosligini yaqqol namoyon etadi.

Frazeologik birliklar, idiomalar, maqol va matallar va naqllarda xalqning hayotiy muammolari, rasm-rusumlari hammasi ko‘zgudagidek aks etib turadi. Bu ko‘hna xalq ijodi qachon, qayerda va qay vaziyatda, kim tomonidan yaratilganini aniq aytish qiyin. Bu sodda va murakkab, turg‘un va barqaror iboralarning ixcham, lo‘nda va chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga olim-u ulamolarning, fozil-u fuzalolarning, hassos shoirlarning hissalarini katta bo‘lgani shubhasizdir.

---

<sup>50</sup> Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Фил.фан.бўй.фалс.доктори.диссер. – Термиз. 2021. – Б. 33.

Xalqning til boyligi – uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o‘lchanadi. Turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarda shakl va mazmun jihatdan bir-biriga juda o‘xshash, bir-biriga mos tushadigan frazeologik birliklar, idioma, maqol va matallar ko‘plab uchraydi. Shu bilan birga bir-biriga qisman, ba’zi hollarda butunlay to‘g‘ri kelmaydigan hollar ham bo‘ladi. Mana shunda frazeologik lug‘atlarga ehtiyoj tug‘iladi. Hozirgi paytda dunyoda juda ko‘p frazeologik lug‘atlar chop etilmoqda. Jumladan Rossiya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Angliya va boshqa yirik davlatlarda bir (izohli), ikki, uch va ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar muntazam chop etiladi.

Barcha ko‘chma ma’nodagi ishlatilib, nutqqa tayyor holda kirgan gap va birliklar frazeologik birliklar hisoblanadi va barcha turg‘un birliklar, maqol va hikmatli so‘zlar, frazalar va idiomalar barchasini o‘z ichiga oladi. Har bir tilning frazeologik qatlami o‘sha til millatining madaniyati, urf – odat va yashash tarzidan kelib chiqib shakllanadi va o‘z tilini boyitadi. Frazeologiya nihoyatda murakkab hodisa bo‘lib, uni o‘rganish o‘ziga xos tadqiqot usulini, shuningdek, boshqa fanlar – leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, tarix, falsafa, mantiq va mintaqashunoslik ma’lumotlaridan foydalanishni talab qiladi. Bir qator frazeologiya muammolari yuzasidan tilshunoslarning fikrlari turlicha va bu tabiiy hol. Shunga qaramay, frazeologiya sohasida faoliyat yuritayotgan tilshunos olimlarning muhim vazifasi ham frazeologiya nazariyasi, ham xorijiy tillarni o‘qitish amaliyoti manfaatlarini yo‘lida sa’y-harakatlarni birlashtirish va umumiy til topishdan iborat.

Til egasi nutqida idiomalarni qo‘llashi bilan bog‘liq emas, balki uning so‘z boyligi yuqori ekanligi, u nutq jarayonida nafaqat konvensional, balki standart bo‘lmagan til birliklariga egaligi bilan izohlanadi. Haqiqatdan ham, nominator idiomatik birliklarni o‘z nutqida qo‘llashi uning yuqori intellektual salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi hamda olam haqidagi bilimlarni zukkolik bilan ikkilamchi interpretatsiya qilishidir.

Idiomatik birliklar, umumiy ma’nosi komponentlari ma’nosiga asoslanmaydigan, yaxlit holda butunlay yangi ma’no kasb etuvchi, shu bilan birga,

til egalarining olam haqidagi bilimlari, uni qay tarzda idrok etishi haqida ma'lumot beruvchi leksik birliklar bo'lib, ikkilamchi interpretatsiya hosilasidir. Til birliklaridagi idiomatiklik hodisasini o'rganish orqali olamni verbal ifoda etishning o'ziga xos usuli haqida bilimga ega bo'linadi. Umuman, har bir til birligidagi idiomatiklik hodisasini maxsus tadqiq etish ularning bevosita kuzatishda ko'zga tashlanmaydigan ichki xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

### **I bob bo'yicha xulosa**

1. O'zbek tili, ayniqsa, jonli muloqot nutqi xilma-xil frazeologik birliklarga juda boy. Bunday birliklar milliy ruhiy o'ziga xoslikni aks ettiradi, bu "lingvomadaniy jamoada milliy o'ziga xoslikni belgilaydigan oyna", bular madaniy jihatdan belgilangan til birliklaridir.

2. Til birliklari til egasi tomonidan yaratiladi, uning milliyligi va madaniyatini ko'rsatuvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Tilda mavjud idiomalar mavjud tilning yuksalish darajasini va tillar tizimida tutgan o'rnini belgilashda muhim.

3. Idiomatik va frazeologik birliklarning boshqa turlari o'rtasida aniq chegaralarni ajratib bo'lmaydi: idiomatika doirasida har jihatdan emas, balki bir jihatdan idiomatik bo'lgan turg'un iboralar tomonidan tuzilgan statik "yadro" va morfologik, leksik va semantik, sintaktik butunlik mavjud.

4. Idiomalar ham boshqa frazeologik iboralar kabi turg'un iboralardan biri hisoblanib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, muloqotga o'ziga xos jo'shqin ruh bag'ishlaydigan va yangi frazeologik ma'no kasb etuvchi turg'un birikmalardir.

5. Inson idiomatik til birliklarini yaratishda aynan olamni idrok etish mobaynida egallagan bilimlar evaziga amalga oshiradi.

## II BOB. IDIOMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. Idioma va unga yondosh hodisalar

“Idioma” termini grek tilidan olingan bo‘lib, haqiqiy, asl degan ma’nomlarni ifodalaydi. Idiomalar turg‘un iboralar bo‘lib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, ma’nosi ularni tashkil qiladigan komponentlar ma’nomlari yig‘indisidan kelib chiqmaydigan, yangi frazeologik ma’no kasb etuvchi turg‘un birikmalardir.

Frazeologik birliklar so‘zlashuv jarayonida paydo bo‘lmaydigan, nutqqa tayyor holda kirib kelgan qurilmalardir. Ular maxsus so‘zlar yordamida tuzilgan bo‘lib, gaplar tarkibida xuddi so‘zlar kabi qo‘llaniladi va gapning muhim qismi, ba’zi hollarda, hatto gapning o‘zi bo‘lib ham kela oladi. Leksikograf olimlar bu tushunchani “idioma” deb atashadi. Ularning lug‘atlaridan bir qancha tushunchalarni, so‘zlarni, iboralarni so‘z turkumiga ko‘ra tasniflangan holda bemalol topa olishimiz mumkin. Bu kabi lug‘atlarda qoida tariqasida so‘zlar, frazeologik birliklar ma’noviy guruhlariga ajratilgan tarzda keltirilgan. Frazeologik birliklarni shakllanish usullariga, ma’no motivatsiya darajasiga, tuzilishi va nutqiy ma’no qismiga ko‘ra tasniflash mumkin.

Frazeologik birliklar o‘zlarining asosiy va qo‘shimcha farqlovchi belgilari nuqtayi nazaridan uch semantik guruhga bo‘lingan bo‘lib, ularning birinchisi idiomalardir.

Frazeologizmlarning ikkinchi semantik guruhi frazemalar hisoblanadi. Bu semantik tip ham, avvalo, frazeologik birliklarning asosiy belgilarini – leksik tarkibi va tuzilishining barqarorligini, umumiy semantikani uning tarkibiy qismlariga bo‘linishi yoki bo‘lmasligini va tayyor lingvistik material sifatida faoliyat ko‘rsatishini aks ettiradi. Frazemalar o‘zining yaxlit mazmuni va tuzilishi jihatidan idiomalarga o‘xshash bo‘lishiga qaramay, ularni idioma bilan obrazlilik ifodasi jihatidan solishtirib bo‘lmaydi, chunki ularning ayrim tarkibiy qismlari so‘zma-so‘z ma’noda amalga oshadi. Frazemalarga o‘ziga xos tuzilish va ko‘chma ma’no ham xosdir, lekin ularni idiomalarning bunday belgilari bilan solishtirib bo‘lmaydi. Shu sababli ularni ko‘pchilik olimlar qisman ko‘chma ma’noli

frazeologik birliklar deb ham atashadi. Frazema birliklari tarkibiy qismlarni to'liq qayta ko'rib chiqish asosida tuzilgan bo'lsa-da, rang-baranglik, his-tuyg'ular va ixtiyoriy impulslarning ifodasi uning barcha turlarida bir xil emas. Frazema birliklarining ayrim tarkibiy guruhlari vazifasida neytral bo'lib, ularda birmuncha qisqartirilgan obrazlilik namoyon bo'ladi, mazmunning badiiy bo'yoqdorligi birmuncha kamroq seziladi: *iliq munosabat, shirin tushlar, achchiq gaplar*.

Frazeologik birliklarning bir qancha turlari mavjud. Eng asosiy va ko'p qo'llaniladigan birliklar: frazema va idiomalar. Professor Sh.Rahmatullayev frazemani quyidagicha sharhlagan: Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra, tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo'lib, odatda, nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi.

Demak, ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, frazeologik birliklarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- a) ular nutq jarayonida yasalmaydi, nutqqa tayyor holda olib kiriladi, doimiy tuzilishga ega;
- b) uning tarkibiy qismlarining bir butunligi, strukturasi va semantikasi doimiydir;
- d) frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari ikki yoki undan ortiq asosiy urg'uga ega bo'lishi mumkin;
- e) ular so'zlovchi tomonidan so'z sifatida anglanishi mumkin bo'lgan alohida bo'laklardan tashkil topgan turg'un birikmalar;
- f) har birining ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga qo'shilmaydi, shuning uchun ular yunoncha "o'ziga xos" degan ma'noni anglatuvchi "idioma" atamasi bilan belgilanadi.

Frazema va idiomalarning yana bir farqi ularning integral ma'nosini hosil qilish jihatidir. Agar idiomatik iboralarning yaxlit ma'nosi barcha tarkibiy qismlarning to'liq o'zgarishi natijasida paydo bo'lsa, u holda frazemaning bunday

mazmuni bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarning ma'nosi va ko'lamini cheklash va o'zgartirish natijasida hosil bo'ladi.

Noidiomatik frazeologik birliklar semantik tasnifning uchinchi guruhini tashkil qiladi. Bu guruh birliklari boshqa semantik turlardan ma'lum o'ziga xos parametrlari bilan farqlanadi. Tuzuvchi komponentlarning lug'aviy ma'nosi asosida yaxlit ma'nosi hosil bo'lgan turg'un iboralar noidiomatik frazeologik birliklarni tashkil qiladi.

Tuzilishi va semantikasi jihatidan yaxlit va barqaror bo'lgan noidiomatik frazeologik birliklar, frazema va idiomalar allaqachon til birliklari toifasiga o'tgan. Lekin bu frazeologik birliklarda idiomatik xususiyatlar – ifoda rang-barangligi, baho ma'nosi, butun mazmunning obrazlilik va boshqalar yetishmaydi. Ular majoziy tuslardan butunlay xoli bo'lib, o'ziga xos predmet va tushunchalarni ifodalaydi.

Tashqi tomondan, bu birliklar sintaktik aloqani saqlaydi, lekin yaxlit ma'no va strukturaning barqarorligi doimiy ta'sirida u noaniq bo'lib, o'chiriladi.

Noidiomatik birliklarda obrazlilik, baholovchilik va modallik elementlari mavjud emasligiga qaramay, ular tuzilish jihatdan barqarorligicha qolmoqda.

Noidiomatik frazeologik birliklarning yana bir xarakterli xususiyati shundaki, ular boshqa tilga erkin tarjima qilinadi. Shu tufayli o'zbek tilining ko'pgina noidiomatik frazeologik birliklari boshqa tillardan tarjima orqali o'zlashtirilgan: *Oktyabr inqilobi*, *Yoshlar ishlari agentligi*, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti*, *Vazirlar Mahkamasi* va boshqalar.

Idiomalar va noidiomatik birliklar til tizimida yonma-yon mavjud bo'lib, muloqotning turli sohalarida turli nisbatlarda bir-birini to'ldiradi. Til birliklarining idiomatikligi tabiiy tilning asosiy xususiyati bo'lib, unda idiomatik ifoda vositalarining mavjudligi insoniyat madaniyati va tilning o'z taraqqiyoti uchun zarur va foydalidir.

Idiomaning ma'nosi nominativ va hissiy-baholovchi komponentni birlashtiradi. Turli leksik idiomalarda tilga olingan komponentlar turli nisbatda birikadi va ko'pgina idiomatik so'zlarga mos keladigan noidiomatik lingvistik

vositalariga nisbatan ikkinchi darajali nomlar hisoblanadi. To‘liq leksik idiomalar (ayniqsa, majoziy ma’noga ega) ko‘pincha qo‘shimcha nominatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu belgilash uchun emas, balki nominatsiya obyektiga hissiy baho berish uchun mo‘ljallangan.

Demak, frazeologik birliklarning so‘nggi ikki semantik turi o‘zining ko‘pgina xususiyatlariga ko‘ra idiomalardan farq qiladi. Bu turlarda quyidagi umumiy frazeologik xususiyatlar mavjud:

– ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemalardan iborat qo‘shma tuzilma, yaxlit ma’noni ifodalash, leksik tarkibning barqarorligi, komponentlar o‘rtasida sintaktik aloqaning yo‘qligi va butun frazeologik birikmaning amalga oshirilishi;

– ular tayyor lingvistik material bo‘lsa-da, ularda idiomatik xususiyatlar – frazeologik ma’no va uning ichki shakli o‘rtasidagi bog‘liqlikning mavjudligi, ularning tarkibida ekspressiv vositalarning ifodalanishi, motivsiz ko‘chma ma’no, shuningdek, leksik va grammatik arxaizmlarning tarkibida mavjudligi.

A.G.Nazaryan frazeologik birliklarni idiomalar va uniliteral frazeologizmlarga ajratadi. Uning sharhiga ko‘ra idiomalar frazeologik birliklar komponentlarining ikki tomonlama, to‘liq ko‘chma ma’noda ishlatilib, to‘liq semantik qayta ma’no olishi natijasida paydo bo‘ladi. Tilda mavjud bo‘lgan idiomalarning hayotga uzviy bog‘liqligi, xalqning maishiy an’analari asosida paydo bo‘lgan bir qator idiomalarda namoyon bo‘ladi<sup>51</sup>.

Idiomalar yaxlit va turg‘un frazeologik birliklar bo‘lib, ularning umumiy ma’nosi tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog‘liq bo‘lmagan, mazmuni boshqa semantik turlarga nisbatan ancha murakkab va rang-barangdir. O‘zbek tilidagi idiomalar bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Idiomatik birliklarning birlamchi xususiyati ularning turg‘un tuzilishidadir. Tuzilish jihatdan idiomalar yaxlit ma’nosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan turg‘un shakllangandir. Ular yaxlit ma’no ifodalaydi, ularning tuzilishi qanchalik barqaror bo‘lsa, tarkibiy qismlari o‘rtasidagi grammatik va mantiqiy bog‘lanish o‘chib, ahamiyatsiz bo‘lib qoladi.

---

<sup>51</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М., 1987, – С.33-39.

2. Idiomatik birliklarning umumiy ma'nosi alohida komponentlar mazmunidan emas, balki o'zaro bog'langan komponentlar majmuasidan kelib chiqadi.

3. Idiomatik birliklar tuzilishi jihatidan analitik bo'lishiga qaramay, o'zining yaxlit grammatik mustaqilligini saqlab qoladi. So'zlar singari, ular birinchi navbatda obyektlar, belgilar, turli harakatlar va holatlarni belgilash uchun ishlatiladi va nutq qismlariga bo'linadi. Bular: otlar, sifatlar, qo'shimchalar, sonlar, fe'llar va boshqalar. Tabiiyki, u yoki bu gap bo'lagiga mansub idiomatik birliklar ma'lum darajada shu bo'lakning ma'nolarini, turli grammatik kategoriyalarini aks ettiradi.

4. Idiomatik birliklar obyektiv voqelikning predmetlarini va boshqa ko'rinishlarini obrazli shaklda ifodalaydi, ularning umumiy va o'ziga xos belgilarini hamda hissiy-ifodaviy impulslar bilan o'zaro bog'langanligini bildiradi. Bunday birliklarning bu xususiyati ko'p hollarda ularning umumiy ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri ma'no bilan solishtirganda aniqlanadi.

5. O'zbek tilining idiomatik birliklari odatda boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi.

O'zbekcha idiomalarning shakllanishiga ularning ko'chma ma'nosi asos bo'ladi. Idiomalar har doim rang-barang ko'chma ma'nolar bilan to'ldiriladi, ular hech qachon tom ma'noda amalga oshirilmaydi. Idiomatik birliklar shakllanish jarayonida ko'plab lisoniy o'zgarishlarga duch keldi va hozirgi ma'noga ega bo'lgan.

Majoziy ma'noga asoslangan an'anaviy badiiy uslublar frazeologik, xususan, idiomatik birliklarning shakllanishining eng muhim manbalaridan biridir. Ularga tashbeh, qiyoslash, istiora – metafora, kinoya, metonimiya, mubolag'a, giperbola, tazod – antiteza, ramz, tamsil kabi badiiy san'atlar kiradi. Ushbu turdagi badiiy san'atlar idiomatik birliklarni qurishning eng muhim vositalaridan hisoblanadi.

Bir hodisani nomlagan metaforik idiomalar butunlay boshqacha ma'no ifodalaydi. Majoziy va qiyosiy idiomatik birliklarning farqi ularda qiyoslangan predmet yoki hodisaning mutlaqo yo'qligida namoyon bo'ladi.

Idiomatik birliklar sinekdoxaning badiiy qurilmasi asosida shakllangan bo'lib, unda ma'lum bir tushuncha o'rniga umumlashgan tushuncha va aksincha, umumlashgan tushuncha o'rnida muayyan bir tushuncha ifodalanadi.

Idiomatik birliklarning eng muhim jihatlaridan biri ularning ko'plab semantik elementlarni qamrab olgan semantik mazmunidir. Idiomatik birliklarning ma'nosi ko'chma ma'noda to'liq shakllangan va turli ranglarga boy. Konseptual-majoziy ma'nolar yaratuvchi bunday semantik elementlar va emotsional-baholovchi soyalarni idiomatik birliklarning katta guruhida uchratish mumkin.

Idiomatik birliklar ko'pincha har xil turlarni ifodalaydi frazeologik semantika sof tushunchalar ko'rinishida emas, balki obrazlilik, emotsionallik, ifoda va baholash bilan uyg'unlashgan holda. Idiomatik birliklarning eng aniq ma'nolari konseptual majoziy va majoziy jihatdan umumlashtirilgan ma'nolardir.

Idiomatik konseptual-majoziy ma'nolar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Idiomatik konseptual-majoziy ma'nolar u yoki bu real hodisani alohida tushuncha tarzida ifodalabgina qolmay, balki tasvir, his-tuyg'u, ifoda va baholash kabi turli qo'shimcha idiomatik elementlarni ham aks ettiradi.

Adabiy o'zbek tilining idiomatik frazeologik birliklarining strukturaviy-semantik xususiyatlarini har tomonlama o'rganish quyidagi xulosalarga olib keladi:

O'zbek adabiy tili frazeologik fondining asosiy qismini tashkil qiladi;

Amalga oshirish va qo'llash darajasi bo'yicha ular boshqa semantik turlardan oldinda turadi.

Idiomatik birliklar obyektiv voqelik hodisalarini oddiy nominatsiya qilish bilan birga, ko'p hollarda turli xil qo'shimcha semantik ma'no va munosabatlarni ifodalaydi va shu bilan bog'liq holda tilda nominativ baho vazifasini bajaradi.

Idiomatik birlikning semantikasida konseptual ma'nodan tashqari obrazli, emotsional, ifodali, modal va baholovchi elementlar ham mavjud. Ko'pgina

birliklarda umumiy ma'noning barcha elementlari birlikda ifodalanishi mumkin, ammo ba'zi hollarda ular notekis ko'rinadi. Idiomalarning tovush tarkibida qiyoslash, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, antiteza, ramz kabi turli badiiy uslublar ko'pincha amalga oshirilib, ularning majoziy ma'nosining paydo bo'lishi uchun alohida unumdor zamin yaratadi. Idiomatik birliklarning ichki shakli o'zbek xalqi hayotining tarixiy, psixologik va etnografik voqeliklarini jamlaydi, ularning aksariyati yozma manbalarda ham saqlanib qolmagan. Idiomatik iboralarning tovush tarkibini ifodalash ko'p hollarda qofiya, alliteratsiya va tarkibiy qismlarning takrorlanishi orqali amalga oshiriladi. Ko'chma va obrazli umumlashgan ma'nolarga bo'linadi. Konseptual-majoziy ma'nolar predmet va hodisalarni rang-barang holda ifodalaydi.

Idioma shakllari komponentlarining ixtiyoriyligi frazeologik birliklarga xos xususiyatdir. Frazeologik birlik komponentlarida so'z xususiyatlarining yo'qligi, ularning o'ziga xos shaxssizligi nafaqat ularning o'zgarishiga olib keladi. Ulardan ba'zilari, ko'p hollarda frazeologik birlikni qo'llashda, hatto o'z tarkibidan tushib qolishi mumkin, ammo boshqa hollarda ular saqlanib qoladi.

Idiomatiklik tilning barcha qatlamlariga singib ketgan. Til birligining idiomatikligi uning xorijiy til tizimiga tegishli analogiga (tillararo idiomatiklik) yoki o'z tilidagi analogiga (prototipiga) (til ichidagi idiomatiklik) nisbatan uning tarkibiy o'ziga xosligini ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, til ichidagi idiomatiklikka ega bo'lgan barcha til birliklarini idioma sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, idioma frazeologik birlik tushunchasiga qaraganda kengroq tushunchaga aylanadi.

Nutqda idiomatik birliklarning ishlashi lingvistik belgidagi turtki, shart-sharoit va jarayon o'rtasidagi munosabatga bog'liq. Idiomalar nutqda belgilovchi, yig'ma, obrazli va evfemik vazifalarni bajaradi. Idiomatik birliklarning motivatsiyasi har xil turdagi motivlarning murakkab birikmasi natijasidir. Tashqi (fonetik) shakliga ko'ra, idiomalar faqat qisman turtki bo'lishi mumkin. Idiomalarning motivatsiyasi ichki shaklga asoslanadi.

Idiomatik birliklarning motivatsiyasi turli lingvistik jarayonlarning murakkab birikmasi natijasidir. Idiomaning tashqi shakli uning motivatsiyasida ichki shaklga qaraganda kamroq rol o'ynaydi.

## **2.2. Idiomalarning semantik va struktur xususiyatlari**

Har bir tilda shunday soʻzlar yoki soʻz birikmalari borki, ularni toʻgʻridan-toʻgʻri tushunib boʻlmaydi. Agar siz barcha soʻzlarning maʼnosini yaxshi bilsangiz ham va barcha grammatik iboralarni tushunsangiz ham, shunga qaramay idiomatik birikmaning maʼnosini anglash murakkabligicha qolaveradi. Maqollar, iboralar va ogʻzaki soʻzlashuv uslubidagi soʻzlarni tushunish bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Frazeologik birlikning tarkibiy qismlari matn soʻzlari orasida qayerda va qanday joylashishidan qatʼiy nazar, frazeologik birlikning chegaralari faqat uning tarkibiy qismlarining tarkibi bilan belgilanadi.

Frazeologik tuzilmaning grammatik jihatdan qoʻllab-quvvatlovchi elementlari vazifasini bir vaqtning oʻzida bajaradigan leksik jihatdan belgilangan komponentlar.

Idiomalar – bu frazeologik birliklar, ular semantik jihatdan boʻlinmas, ularning mazmuni sinxron tarzda komponentlarning motivlashtirilmagan maʼnolari bilan ifodalanadi. Faqat ayrim idiomalarda komponentlarning semantik ajratilishlarning zaif alomatlari namoyon boʻladi. Bizningcha, idioma bu lisoniy birliklar birikmasidir, uning maʼnosi uning tarkibiy elementlari maʼnosiga toʻgʻri kelmaydi. Bu nomuvofiqlik yaxlit idioma tarkibidagi elementlar maʼnosining oʻzgarishiga bogʻliq boʻlishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda idioma tushunchasi eng yuqori darajadagi muntazamsizlikka ega boʻlgan frazeologik birliklar tushuniladi. Muntazamsizlik tushunchasi shuni anglatadiki, frazemalar (yoki frazeologik birliklar) tilning mahsuldor semantik yoki sintaktik qoidalariga muvofiq yasalmaydi. Shu sababli foydalanuvchi uchun ularni bir butun holda yodlash, bunday birliklarni shakllantirish uchun baʼzan noyob qoidalarni xotirada

saqlashdan ko‘ra osonroqdir. Lisoniy tadqiqotlarni olib borishda ko‘pincha tildan uning tashuvchilari mahalliy kontekstual maqsadlarda va ayniqsa, shaxslararo o‘zaro hamkorlikda qanday tarzda foydalanishlari hisobga olinadi. Bunda eng asosiy qiyinchiliklardan biri idiomalardan to‘g‘ri foydalanishda ko‘zga tashlanadi.

Qisqacha aytganda, idioma – bir umumiy ma‘noni bildiruvchi bir nechta so‘zlarning birikmasidir. Bu so‘zlar idiomalar sifatida alohida ma‘nosini yo‘qotadi. Idiomaning umumiy ma‘nosini bilmasdan turib, uni boshqa tilga tarjima qilish yoki asosiy ma‘nosini tushunib olish qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar xoh u yozma bo‘lsin, xoh og‘zaki bo‘lsin nutqimizga jilo berib turuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Ular har bir tilda mavjudligi sababli jamiyatdagi har bir soha doirasida qo‘llanilish xususiyatiga egadir.

I.E.Anichkov barcha so‘zlarning cheklangan miqdordagi birikmalariga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, turg‘un iboralarni idiomalar deb ataydi<sup>52</sup>.

M.R.Rayevskiy idiomani “leksik birliklar ma‘nolarining frazema tarkibida yo‘qolishi” deb ta‘riflaydi<sup>53</sup>.

Tilshunoslar va filologlarning shaffof ichki shaklga ega bo‘lgan idiomalarga doimiy qiziqishi tabiiydir. Bunday idiomalar o‘z ortida turgan madaniy ma‘lumotlar jihatidan ham, ulardagi milliy mentalitetning namoyon bo‘lishi jihatidan ham, frazeologik birliklarning ichki shakllarida namoyon bo‘lishi jihatidan ham ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchilarning tafakkurining assotsiativ-majoziy tuzilishi hisoblanadi.

Idioma deb ma‘nosi tarkibidagi so‘zlar ma‘nolarining yig‘indisidan kelib chiqmaydigan so‘z birikmalariga aytiladi. Idiomatik birliklar, asosan, kundalik muloqotlarda qo‘llaniladi. Bunday iboralar tezda yodda saqlanib qolib, funksional jihatdan so‘zga teng bo‘ladi. Ular fikrni chiroyli ifodalashga ham xizmat qiladi.

Idiomaning asosiy xususiyatlari:

a) barqarorlik;

---

<sup>52</sup> Аничков И.Е. Идиоматика в ряду лингвистических наук // Он же. Труды по языкознанию. СПб. : Наука, 1997. С. 101–145.

<sup>53</sup> Раевский М. Р. Замечания по спорным проблемам фразеологии // Проблемы русской фразеологии: республиканский сб. — Тула: Тульский гос. пед. ин-т им. Л. Н. Толстого, 1976. — С. 115-116.

b) sintaktik bo‘linmaslik;

c) ma’no yaxlitligi.

Idiomaning boshqa frazeologizmlardan farqi uning leksik to‘ldirishdagi cheklanganligidir. Idiomatik konstruksiyalar faqat shu idiomatik tipga xos bo‘lgan ma’lum semantik so‘zlarning ishlatilishini nazarda tutadi.

1. Idioma – ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora. Masalan: *tomdan tarasha tushganday*.

2. Idioma ma’lum bir tilga xos, unga o‘zlashib ketgan va boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan nutq birligidir.

3. Ma’nosi ayni ibora tarkibidagi so‘zlarning mazmunidan kelib chiqmaydigan iboraga idiomatik ibora deyiladi. Idiomashunos olim A.Y.Rojanskiy bunday iboralarning uch asosiy belgisini ajratib ko‘rsatadi:

a) birikmaning turg‘unligi;

b) birikmaning ko‘chma ma’noliligi;

v) birikmaning ma’noviy butunligi.

Idiomalar shaklan 2 guruhga bo‘linadi: to‘liq va noto‘liq idiomalar.

To‘liq idiomalar bir butun shaklda ifodalanadi: *ammamning buzog‘i*.

Noto‘liq idiomalarga ayrim so‘zlar bilan to‘ldirilish imkoniyatiga ega bo‘lgan idiomalar misol bo‘la oladi: *atala yegan – qo‘li atala yegan*.

Idiomatik birliklar alohida shakllangan (so‘z birikmalari) yoki yaxlit shakllangan (murakkab va qo‘shma so‘zlar) bo‘lishi mumkin. Semantik transpozitsiyaning tabiatiga ko‘ra, alohida shakllangan birliklar o‘z navbatida frazeomatizmlarga (toraytirilgan, kengaytirilgan yoki o‘zgaruvchan ma’noli) va frazeologizmlarga (to‘liq yoki qisman integral ma’noga ega) bo‘linadi. To‘liq shakllangan idiomatik birliklar toraygan, kengaygan, ko‘chma va ko‘chma ma’noli leksik birliklarga bo‘linadi. Frazemali fe‘llar idiomalar doirasida ko‘rib chiqilib, to‘liq ko‘chirilgan ma’noli birliklarga va qisman ko‘chirilgan ma’noli birliklarga bo‘linadi.

Idiomalarning til tizimida paydo bo‘lishiga doir holatlarni tadqiq etish dunyo tilshunoslari tomonidan ushbu turg‘un birikmalarning turli mavzuviy guruhlariga ajratilishiga olib kelgan. Jumladan:

– diniy asoslarni ifodalovchi idiomalar (Muqaddas Qur‘on oyatlari, musulmon e‘tiqodiga mansub shar‘iy qarashlardan tarkib topgan idiomalar; Injil syujetlari bilan bog‘liq idiomalar – bibleizmlar);

– muayyan ijodkor faoliyatiga aloqador idiomalar;

– taom, yegulik nomlarini ifodalovchi idiomalar;

– somatik tushunchalarni ifodalovchi idiomalar;

– “hayvon” semantik komponentli idiomalar;

– maishiy buyumlarni ifodalovchi idiomalar<sup>54</sup>.

O‘zbek tilidagi idiomalarning hosil bo‘lishini o‘rganib, quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

– diniy asoslar ishtirokida hosil bo‘lgan idiomalar: *anqoning urug‘i, almisoqdan qolgan;*

– taom, yegulik nomlari yordamida hosil bo‘lgan idiomalar: *atala yegan, pichog‘i moy ustida, bir qop yong‘oq;*

– maishiy predmetlar yordamida hosil bo‘lgan idiomalar: *tesha tegmagan, ketmoni uchmoq, kosasi oqarmoq, igna yutgan, latta chaynar, yumshoq supurgi;*

– somatik nomlar asosida hosil bo‘lgan idiomalar: *qo‘li uzun, tish tirnog‘igacha, o‘pkasi yo‘q, og‘zi qulog‘ida, qo‘l keldi, ichidan pishgan;*

– hayvon nomlari asosida hosil bo‘lgan idiomalar: *ammamning buzog‘i, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan;*

– o‘xshatish asosida hosil bo‘lgan idiomalar: *tomdan tarasha tushganday, ikki tomchi suvday.*

Idiomalarning semantik o‘ziga xosligi ularning nutqda yaxlit ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi, bu ustama ma‘no komponentlari anglatgan ma‘noga aloqador emasligi bilan belgilanadi.

---

<sup>54</sup> Qarang: Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филолог.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2021. – Б. 54.

Idiomalar kelib chiqish manbasiga hamda ularga tegishli bo'lgan inson faoliyati sohasiga, tabiatga, tabiat hodisalariga qarab tasniflanadi. Idiomalarni mavzuviy tamoyil asosida tasniflash frazeologik birliklarning faqat kelib chiqishi va ma'nosini hisobga olgan holda, ularning lingvistik xususiyatlariga hech qanday ahamiyat bermaydi, balki lisoniy dunyo manzarasida ularni ma'lum bir mavzu sohasini aks ettirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi. Idiomalarni o'rganish va tahlil qilishda mavzuviy yondashuv barchaga ma'lum va tadqiqotchilar tomonidan keng foydalanib kelingan. Idioma ushbu tilda so'zlashuvchi xalq tarixi, madaniyati, an'analari va adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqqa tortilgan idiomalarning quyidagi mavzuviy guruhlarini aniqlandi:

Qo'qqisdan sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalovchi idiomalar: *tomdan tarasha tushganday;*

Yangilik holatini ifodalovchi idiomalar: *tesha tegmagan, tandirdan yangi uzilgan, oxori to'kilmagan;*

Sirlilik holatini ifodalovchi idiomalar: *kosa tagida nim kosa;*

Moddiy yetuklikni ifodalovchi idiomalar: *qo'li uzun;*

Vaqtida harakat qilish kerakligini ifodalovchi idiomalar: *temirni issig'ida bosmoq;*

Moddiyati yaxshilanish holatini ifodalovchi: *kosasi oqarmoq, og'zi oshga yetti;*

Insonning xususiyatlarini ifodalovchi idiomalar: *ammamning buzog'i, bir qop yong'oq;*

Ayyorlik holatini ifodalovchi idiomalar: *ichidan pishgan, pixini yorgan;*

Aqldan ozganlikni ifodalovchi idiomalar: *tomi ketgan;*

Xursandlik holatini ifodalovchi idiomalar: *terisiga sig'madi, ichiga sig'madi, telpagini osmonga otmoq;*

To'liqlik holatini ifodalovchi idiomalar: *tish tirnog'igacha;*

Ozg'inlik holatini ifodalovchi idiomalar: *igna yutgan;*

Kamyoblik holatini ifodalovchi idiomalar: *anqoning urug'i;*

Eskilik holatini ifodalovchi idiomalar: *almisoqdan qolgan*;

Yoshlik, g'oliblik holatini ifodalovchi idiomalar: *og'zidan ona suti ketmagan*;

Homiladorlik holatini ifodalovchi idiomalar: *tarvuz yutgan*;

O'xshashlik holatini ifodalovchi idiomalar: *ikki tomchi suvday*.

Bu guruhni uzoq davom ettirish mumkin. Idiomalar turli holatlar uchun xoslanadi. Xalqning ijtimoiy hayotidagi har bir ijtimoiy holat uchun ma'lum idiomalar mavjud.

Semantik jihatdan bo'linmaydigan birlik, uning mazmun va ma'nosini idiomaning tarkibiy qismlari ma'nolari yig'indisidan mutlaqo chiqarib bo'lmaydi, ularning semantik mustaqilligi butunlay yo'qolgan. Ular nutqiy muloqotning ajralmas qismidir, bular tilda qotib qolgan va o'zgarmagan idiomalar bo'lib, nutqni sezilarli darajada boyitib, uni rang-barang darajada ifodali qiladi.

Idioma – bu yaxlit semantik tuzilmadir. Bunday tuzilmada semantika bosh rolni o'ynaydi. Lekin uning semantikasi shu idiomani tashkil etuvchi so'zlarning ma'nosiga bog'liq emas. Idioma ko'rinishida birlashgan so'zlar, aksariyat hollarda asl ma'nosini yo'qotadi.

Idioma – ma'nosi tarkibiy qismlari ma'nosi asosida belgilanmaydigan, nutqqacha yaxlitlikka ega bo'lgan o'ziga xos ko'chma ma'noli barqaror til birligi, idiomatiklik til birligining ko'chma ma'no kasb etish jarayonidir.

O'zbek tilidagi idiomalar, asosan, gap tarkibida sifatlovchi xarakterida bo'ladi. Idiomalar semantik jihatdan salbiy va ijobiy guruhlarga bo'lganda quyidagicha tasnif qilinishi mumkin:

Ijobiy ma'noli idiomalar: *tesha tegmagan, qo'li uzun, tish tirnog'igacha, bir qop yong'oq, pichog'i moy ustida, og'zi qulog'ida, ketmoni uchmoq, qo'l keldi, kosasi oqarmoq*.

Salbiy ma'noli idiomalar: *ammanning buzog'i, igna yutgan, atala yegan, anqoning urug'i, og'zidan ona suti ketmagan, almisoqdan qolgan, ichidan pishgan, o'pkasi yo'q, pixini yorgan, tomi ketgan, latta chaynar, yumshoq supurgi, gullab qo'ymoq*.

Metaforik va metonimik o'zgargan, ma'nosi ko'chgan frazeologizmlarda idiomalarning kategorial belgilari, ya'ni semantik yaxlitlik va barqarorlik xususiyatlari uchraydi. Shuningdek, tadqiqotchilar metaforik frazeologizmlarda idiomalarning to'liq va to'liqsiz, metonimik frazeologizmlarda esa to'liq idiomalar bo'lishini qayd etishadi. Har xil turdagi idiomalar nafaqat turli semantik butunlikka, balki turli sintaktik komponentlarga ega bo'lib, turli darajadagi mustaqil belgi xususiyatiga egaligi bilan ham xarakterlidir. Idioma tarkibidagi komponentlar turli lingvistik mavqega (status) ega.

Idiomalar semantikasining madaniy jihatdan belgilangan komponentlari:

- 1) obrazli asos;
- 2) aksiologik komponent;
- 3) emotsional-ekspressiv komponent.

Idiomalar semantikasining madaniy jihatdan belgilangan komponentlari avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq va madaniyatning assotsiativ-majoziy tafakkuri bilan bog'liq.

Idiomalar fonema, morfema, so'zga nisbatan murakkabroq leksik-grammatik va ayniqsa semantik tuzilishga ega omillari idiomalarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ularning milliy xususiyatlarini belgilaydi.

Idiomalar, so'zdan farqli o'laroq, ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan va kamida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'zga ega bo'lgan murakkab, alohida shakllangan lingvistik tuzilmadir<sup>55</sup>.

Idiomalar tarkibidan birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan birlik hisoblanadi. Tarkibidagi so'zlarning turkumi jihatidan farqlarga ega bo'lishi mumkin. Misollarni tahlil qilish orqali idiomalarning struktur xususiyatlarini bilib olish mumkin.

Avvalo ikki tarkibli idiomalarni ko'rib chiqamiz:

*Ot + fe'l* shaklidagi idiomalar: *igna yutgan, atala yegan, kosasi oqarmoq, tarvuz yutgan, tomi ketgan, latta chaynar, almisoqdan qolgan, tesha tegmagan, terisiga sig'madi*;

---

<sup>55</sup> Рахманова В.С. Цетлина. – М: Просвещение, 1967. – С. 289.

*Ot + ot* shaklidagi idiomalar: *ammamning buzog‘i, anqoning urug‘i, og‘zi qulog‘ida;*

*Sifat + ot* shaklidagi idiomalar: *yumshoq supurgi;*

*Ot + sifat* shaklidagi idiomalar: *qo‘li uzun.*

Ikkidan ortiq so‘zdan tarkib topgan idiomalar quyidagicha tuzilishga ega bo‘ladi:

*Son + ot + ot* shaklidagi idiomalar: *bir qop yong‘oq, ikki tomchi suvday;*

*Ot + ot + fe‘l* shaklidagi idiomalar: *tomdan tarasha tushganday, og‘zidan ona suti ketmagan;*

Tarkibida ko‘makchi ishtirok etgan murakkab shakldagi idiomalar: *kosa tagida nim kosa, pichog‘i moy ustida.*

Idiomalar tarkibida uni hosil qiluvchi grammatik kategoriyalardan *ot*, *sifat*, *fe‘l*, *ba‘zan son* ishtirok etishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda idioma tushunchasi real eshitilayotgan nutqni idiomatik tahlil qilish o‘ta dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ba‘zi tilshunos olimlar frazeologiyaning yagona ta‘rifi keltirilmagan degan qarashni ilgari surishadi. Ozmi-ko‘pmi an‘anaviy ravishda idioma deganda, yaxlit ma‘noli, ya‘ni ulardagi komponentlarning ma‘nosi bilan izohlanmaydigan, qotib qolgan yoki barqaror nutq oborotlari tushuniladi.

Idioma tarkibi sodda tuzilgan bo‘lsa-da, unga yuklangan ma‘noning murakkabligi bilan ajralib turadi. Har qanday idiomatik birlikning ichki shaklining roli boy motivatsion subtekstni yaratadi, buning yordamida ma‘no va ma‘nolarni o‘zgartirish mumkin. Idiomalar, asosan, bir ma‘noli bo‘ladi va konkret vaziyatlar uchun qo‘llaniladigan mazmun uchun xoslanadi.

Muayyan tilning idiomalari madaniy bilimlarning markazi hisoblanadi. Idiomalarni tahlil qilish orqali til birliklarining “ichki qiyofasini” ochib berish orqali xalq hayotining ko‘p qirralari bilan tanishish mumkin. Idioma tilning mazmunli shaklini tavsiflash tarjimonlar uchun ham, ma‘lum bir madaniyatni tushunishga harakat qilayotgan boshqa millat vakillari uchun ham muhimdir.

Idiomalarning leksik, semantik va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish juda qiyin ish. Idiomatik birliklar – bu nutq jarayonida yasab bo‘lmaydigan so‘z guruhlari; ular tilda tayyor birliklar sifatida mavjud bo‘ladi.

Idioma, so‘zlarning barqaror birikmasi bo‘lib, u ma’lum bir tilning ona tilida so‘zlashuvchilarga ma’lum (ko‘p hollarda, majoziy ma’noda) doimiy leksik tarkibi, grammatik tuzilishi va ma’nosidan kelib chiqmagan ma’no bilan tavsiflanadi.

## **II bob bo‘yicha xulosalar**

1. Idiomalar, frazemalar va noidiomatik birliklar til tizimida yonma-yon mavjud bo‘lib, muloqotning turli sohalarida turli nisbatlarda bir-birini to‘ldiradi.

2. Milliy-madaniy xususiyatlar tilning deyarli barcha sathlarida namoyon bo‘ladi, lekin ular, ayniqsa, uning idiomasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

3. Idiomalarning real semantik imkoniyatlari noidiomatik lingvistik belgilarga nisbatan ortib boradi va potensial semantik sig‘im o‘zgaruvchan bo‘lib, berilgan lisoniy birlik ma’nosiga xos bo‘lgan modelga muvofiq kontekst va nutq vaziyatiga qarab to‘ldiriladi. Idiomatik belgilarning bu xususiyati ona tilida so‘zlashuvchilarga o‘z fikrlarini moslashuvchan va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

4. Idiomalar tilda nominativ vazifani bajaradi va semantik jihatdan til birliklarining eng murakkab quyi tizimi hisoblanadi. Ular o‘ziga xos til birliklari bo‘lib, milliy va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi va chet tili talabalari uchun doimo katta qiziqish va katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Idiomalarni tushunishdagi qiyinchiliklar bu ko‘chma iboralarning umumiy ma’nosini ularni tashkil etuvchi komponentlar ma’nolarining oddiy yig‘indisiga asoslanib tushunib bo‘lmasligi bilan bog‘liq.

### III BOB. IDIOMALARNING LINGVOPOETIK QIMMATI

#### 3.1. Nasriy asarlarda idioma

Zamonaviy tilshunoslikda idioma gapning ifodaliligini oshirishga qaratilgan stilistik vosita sifatida tushuniladi. Idiomalarni aniqlash mezonlari qatoriga alohida shakl, strukturaviy variantlar yoki yangi shakllanish imkoniyati ham kiradi. Shunday qilib, idiomatika sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yoʻnalishida individual idiomatik iboralarni tasniflash va tahlil qilishdan kontekstdagi idiomalarning funksional xususiyatlarini aniqlashga oʻtish kuzatilmoqda.

Idiomalarning matndagi eng muhim vazifalaridan biri dunyo haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishdir, idiomalar dunyoning lingvistik rasmini shakllantirishda asosiy rol oʻynaydi. Turli hodisalar, vaziyatlar va hayotiy tajribalarning xilma-xilligi bizning fikrlashimizni umumlashtirilgan ogʻzaki modellarni shakllantirishga undaydi.

Idiomalarni badiiy asar personajlari va asar gʻoyasiga muvofiq oʻzgartirish mumkin. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq idiomalarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab ularni oʻzgartiradi va qayta ishlaydi.

Badiiy adabiyot, publitsistika, soʻzlashuv uslubida idiomalarning qoʻllanilishi ularning ifoda imkoniyatlari bilan bogʻliq. Oʻzbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda idiomalarning kundalik nutqdagi ishtiroki, maʼno ifodalashiga oid maʼlumotlarning faqat umumiy holda berilganligini kuzatamiz<sup>56</sup>.

Badiiy asarga jilo berib turgan uning zarrachalari: maqol, matal, idiomalar va boshqa koʻchma maʼnoli birikmalar boʻlib, ular badiiy asar qiymatini, zavqini oshirishga katta yordam beradi. Maqol, matal va idiomatik birliklar badiiy asarda yozuvchi tilida hamda unda tasvirlangan personajlarning nutqida koʻp ishlatilishi sababli ular badiiy adabiyot uchun juda xarakterlidir.

Quyida idiomalarning badiiy matnlarda tutgan oʻrniga toʻxtalamiz. Bunda oʻzbek adabiyotida mashhur boʻlgan yozuvchi, shoirlar va ularning asarlaridan

---

<sup>56</sup> Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филолог.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2021. – Б. 27.

foydalangan holda idiomalarning lingvopoetik qimmatini yoritishga harakat qilamiz.

*Qanchadan-qancha **tesha tegmagan** gaplari, qochiriqlari taxi buzilmaygina yorug‘ olamni ko‘rmay ichida jon berdi, uvol!.. Ahyon-ahyonda tiliga kuchi yetmay qolgan paytlari aytganini eshitganlar esa uni **ichidan pishgan** pismiqa chiqarishdi. Mabodo kallasi boshqacharoq ishlab qolmaganida, ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan yumushni topmaganida dunyodan “O‘qub pismiqligicha o‘tib ketardi. (Xurshid Do‘stmuhammad. “Yoqub izquvarning hiylasi”).*

Mazkur parchada keltirilgan *tesha tegmagan, ichidan pishgan* kabi birikmalar idioma sifatida qo‘llanilmoqda. *Tesha tegmagan* idiomasi yangi, ko‘pchilikka noma‘lum bo‘lgan ma‘noni ifodalamoqda. O‘zbek tilida “*tesha ko‘rmagan kesak – uxlagan kesak*” degan paremiologik birliklar ham uchraydiki, aynan shu jumladan tesha kesakka tegmaguncha kesak ko‘p narsadan: teshaning zarbidan, bahor kelganidan, unga urug‘ qadash uchun ishlov berilayotgandan bexabar qoladi degan ma‘no anglashilgan. Shuningdek, idiomada anglashilib turadigan madaniy belgi ham tesha leksemasida bor. Ma‘lumki, dehqonchilik bilan azaldan shug‘ullanib kelgan o‘zbek xalqining asosiy mehnat quroli hisoblangan. Shuning uchun ham o‘zbek tilida mazkur leksema bilan bog‘liq antroponimlar (*Tesha, Teshavoy*) ham vujudga kelgan.

*Burnog‘i kuni Mirhobid narxi tushirilgan jurnal xarid qildi. Bisotida ikkita echkiyam bor. Ertalab bir qo‘lida tayoq, bir qo‘liga jurnal olvoldi. Ko‘chaga chiqqach marza chetiga qo‘nib, jurnal o‘qigan bo‘ldi. Ko‘zi esa o‘tgan-ketgan odamlarda. Yo‘lovchilar u bilan salomlashib, hol-ahvol so‘rashar, ayrimlari qochirim ila “mullakam yangi narsa o‘qiyaptilar-ku, olamda nima gaplar?” deb qo‘yishardi. Mirhobid shu soniyada **terisiga sig‘may ketgan**, o‘zini o‘qimishli sanashlaridan **og‘zining tanobi qochgandi**. Mirhobidning bilag‘onligi tutib gap boshlay turuvdi, atrof olatasir bo‘lib ketdi. Echkilar uy tomon taraqaylab qochdi. Bir bo‘lak sopol parchasi Mirhobidning chakkasiga qaqshatib tegdi. Qahramonimiz boshini changallaganicha ikki bukilib qoldi. (Abdulla Ahmad. *Mirhobid (Hajviya)*)*

Keltirilgan ushbu parchada ham *terisiga sig'may ketgan, og'zining tanobi qochgandi* kabi idiomaga shaklidagi birikmalar qo'llanilgan. Xursand bo'lmoq, faxrlanmoq, kayfiyati ko'tarilib ketmoq kabi ma'nolarni ifoda etish uchun qo'llanilgan *terisiga sig'madi* birikmasi o'zbek tilidagi badiiy matnlarda keng qo'llaniladi. Shu o'rinda shaklan ushbu idiomaga o'xshash bo'lgan *o'ziga sig'madi* birikmasi ma'no-mazmun jihatidan "*terisiga sig'madi*" ga teskari qo'yiladi. Shuningdek, *og'zining tanobi qochdi* birikmasi kulish, xushchaqchqlik, kerilish ma'nolarini ifodalamoqda. *Tanob* so'zi arabcha bo'lib, *chilvir, arqon* ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida uzunlik o'lchov birligi, yer o'lchash, chiziq tortish uchun ishlatiladigan uzun ip, arqon kabi ma'nolarda ishlatiladi. Inson tabassum qilganda og'iz shaklining o'zgarishi, ochilish darajasining kattalashishiga ishora berilib, aynan shu idiomaga qo'llaniladi. Shu o'rinda yana bir misol:

– *Bizniki ota kasb. Dehqonchilik-da, – og'zining tanobi qochdi uning. – Xotinning qo'lida, fermer xo'jaligida. – Choydan ho'plab davom etdi. – Otam rahmatli ham dehqon o'tganlar. Vasiyat qilgandilarki, tug'ilgan joyingdan hech qayoqqa ketma, deb. O'zimcha o'ylayman, o'shanda balki hozirgi yaxshi kunlar kelishini bilgandirlar. (Abdusattor Hotamov "Yomg'irli kunda").*

Mazkur parchada ham *og'zining tanobi qochdi* idiomasi yuqoridagi kabi ma'nolarni ifodalagan. O'zbek tilida aynan mana shu idiomaga nisbatan *og'zi qulog'ida* idiomasi ma'nosi yaqin deb hisoblanadi:

*Komil o'n to'qqizinchida ertalab Moskvadan uchib kelgan edi.*

– *Moskvadan? Ha. Kurortga ketgan edi, dam olish o'rniga Moskvaga o'tibdi. Kosmonavtlar bilan uchrashibdi. Og'zi qulog'ida edi. Kosmonavtlar yordam beramiz, deyishibdi.*

– *Qanaqa yordam?*

– *Komil bir yangilik ustida ishlayotuvdi. Mana shu dalada Komil ikkimiz tajriba o'tkazardik. Umri qisqa g'o'za navini yaratmoqchi edik. (Tohir Malik "Charxpalak")*

Keltirilgan misolga e'tibor beradigan bo'lsak, *og'zi qulog'ida* birikmasi ham *og'zining tanobi qochdi* idiomasi bilan mazmunan yaqin ekanligini ko'rishimiz

mumkin. Har ikki holatda ham og‘iz shaklining o‘zgarishi tabassum qilish ma’nosini ifodalamoqda.

*Ertasiga u yana maqolani olib keldi, uni yana qaytarib berishdi. Maqolani uchinchi marta ham qayta ishlab o‘tkazolmagandan keyin, u shoshilganini, bu yo‘ldan faqat Forestening etagida yurgan taqdiridagina **kosasi oqarajagini** angladi. Uzoq villar tahririyatlarda xizmat qilgan bo‘lishiga qaramasdan, Buarenarda mahorat va yorqin xayol yetishmasdi. Muhimi, unda tug‘ma ishbilarmonlik qobiliyati yetishmas, shuning uchun, ko‘pincha, boshliqning xayolidagi yashirin niyatlarning fahmiga yetib ish ko‘rolmas, **kosa tagida nimkosa** borligini bilmasdi. (Gi de Mopassan “Azizim”)*

O‘zbek tilida qo‘llaniladigan leksemalarda bir nechta ma’nolarni ifodalash xususiyati boshqa tillarga nisbatan ancha yuqori. Tahlil uchun tanlangan yuqoridagi parchada ham shu holat ko‘zga tashlanadi. *Kosasi oqarmoq* va *kosa tagida nimkosa* birikmalari *kosa* leksemasi asosida hosil qilingan bo‘lsa-da, mazmunan ancha keng. *Kosasi oqarmoq* umumiy ma’noda hayotning izga tushishi, yo‘qchilik, yetishmovchiliklarning arishi, ishlarning rivoji, to‘qchilik kabilarni ifodalaydi. Bunda sinekdoxa asosida ma’noning ko‘chishi kuzatilib, *kosa* butun uy-ro‘zg‘or, hayotni ifodalamoqda. Oq rang, barchamizga ma’lumki, yorug‘lik, yaxshilik, baraka ifodasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, oilada to‘kinlik, hayotiy faoliyatda ishlarning oldinga siljishi ayni matnda *kosasi oqarajagini* idiomasi orqali ifodalangan. Ya’na bir misol:

*Nodim chuqur entikdi, boshini sarak-sarak qildi. Axir u ham, bir amallab bo‘lsa-da, har holda kollejni bitirgan edi. Lekin ishi hech yurishmadi. O‘zini u yoqqa urdi, bu yoqqa urdi, har xil mahkamalarda yugur-etim vazifalarni bajarib yurdi, shundan nariga o‘tolmadi, **kosasi ham oqarmadi**. Buning ustiga oilaviy turmushda ham omadi chopmadi. Aka-ukadan ham yolchimagandi. Taqdiri azal manglayiga shularni yozgan ekan, nachora? (Qamchibek Kenja “Ikki hikoya”).*

*Kosa tagida nimkosa* birikmasi esa kinoya, piching, biror so‘z yoki gapni boshqa mazmunda ishlatish ma’nosida keldi. Bu yerda kosaning tagida boshqa bir kichik *kosa* (*nimkosa*) borligiga ishora qilingani, bir gapning tagida boshqa bir gap

borligini bildiradi. O‘zbek tilida *kosa tagida nimkosa* idiomasi o‘rinda *qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit* maqoli mazmunan yaqin deb hisoblanadi.

O‘zbek tilida o‘xshatish asosida hosil qilingan shunday idiomalar ham mavjudki, ularda xalqning mentaliteti, kundalik hayoti, nutqida faol ishlatiladigan so‘zlar asos bo‘ladi: *Bektemirdan ko‘nglim to‘q, – dedi Ali tajang, – kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho‘tir – u ham qo‘rzoq, ham **ammamning buzog‘i!!!*** (Oybek “*Quyosh qoraymas*”).

Xuddi shunday o‘xshatish asosida *igna yutgan itday* idiomasi ham hosil bo‘lgan:

*Yetti yildirki, chol yolg‘iz. Tog‘begi o‘rmon qorovulligini bekor qilganidan buyon esa ishsiz. Boqqan jonivorini so‘yib yeyishni tabiati ko‘tarmaydi. Shuning uchun chorva tutmadi. Yakkaqo‘l dehqonchilik qiladi. Xotini borida u-bu narsa orttirgandi, xotini ketgach, uydin baraka ham ko‘tarildi. Bir vaqtlar kafanlikka deb yiqqanlarini ham yeb-ichib bo‘ldi-yu, jon chiqay demaydi. Davlat nafaqasi unga nasib etmagan. O‘shanda tengqurlariga qo‘shilib hujjatlarini raysab bezga olib borgandi, **igna yutgan** itdek oriq bir yigit “Boboy, yoshingiz yetmaydi, biroz kutasiz ...”, — desa bo‘ladimi? (Bahodir Qobul “Nafaqa”)*

Ushbu idioma juda ozg‘in, ba‘zi suyaklari, qovurg‘alari ko‘rinib turadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Juda ozg‘in insonlarning biroz egilib yurishi, igna yutgan itning holatiga o‘xshatilgan.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish o‘rinliki, o‘zbek tilida idiomaning qo‘llanilish doirasi keng. Idiomalar ham iboralar singari ba‘zi o‘rinlarda o‘z ma‘nosida qo‘llanilsa, boshqa bir vaziyatda yangi ma‘noda qo‘llanilishi mumkin. **Qo‘li uzun, tish-tirnog‘igacha, og‘zidan ona suti ketmagan** kabi idiomalar shunday birikmalarga misol bo‘la oladi.

*Ukasining mantig‘i qarshisida Hakimboyyachcha ham esankirab qoldi. U hali ko‘proq boshqa xayollar bilan bosh qotirib, bu tomonlarga ahamiyat bermagan, to‘g‘risi, esga keltirmagan edi. Chunki uning **qo‘li uzun** edi, davlatning bir qismini dadasidan, ukasidan yashirin ishlatib, xolis o‘ziga qarashli katta bir*

*boylik orttirgan edi. Lekin bunga qaramasdan, hozir uning ko'z oldidan bir qator go'daklar, o'gay ukalar o'ta boshladi. (Oybek "Qutlug' qon")*

*Qo'li uzun idiomasi o'rnida qo'lini qayoqqa uzatsa yetadi, qo'li ko'p joyga yetadi kabi shakllar ham qo'llaniladi. Har qanday holatda ham imkoniyati keng, puldor, mansabdor, biror ishni bajarishga kuchi qurbi yetadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi.*

*Tonggi g'ira-shirada turk yabg'usi o'rdusida dahshatli taloto'p boshlandi. Atrof ovullardan ham qurolli yigitlar to'planib, o'rduda oyoq bosgudek joy qolmagandi. Jujan soqchilaridan ba'zilari hushyor tortib, sheriklarini uyg'otishga shoshildilar. Biroq vaqt boy berilgan edi. Turklar soqchilarga qoplonddek tashlanib, paydar-pay zarbalar bilan mahv etib, har bir urug' yigitlari belgilangan o'tovga bostirib kirishdi. **Tish-tirnog'igacha** qurollangan turklar jujanlarni qilich va bolta bilan chopar, duch kelgan yeriga nayza sanchar, temirchilar bolg'a bilan boshini majaqlardi. To'plardan biriga kishandan xalos bo'lgan Istami boshchilik qilardi. Dastlabki qurbonlar qatorida Buruldoyning boshini kesib, yabg'u oldiga keltirishdi. Ba'zi jujan yuzboshi va o'nboshilari baqirib-chaqirib jangchilarni to'plab, qarshilik ko'rsatishga urinishdi. (G'ulom Karimiy "Temirchilar isyoni")*

*Parchada keltirilgan tish-tirnog'igacha idiomasi to'liq, butunlay, kuchli ma'nolarida qo'llaniladi. Tish tirnog'igacha qurollangan shaklida to'liq ma'nosini bildirsa, tish tirnog'i bilan qarshilik qildi shaklida esa kuchli ma'nosida kelgan. Tish-tirnoqsizday yolg'iz qoldi birikmasida esa butunlay ma'nosini ifodalagan.*

*Hozirgi yoshlar, ming afsuski, Samar Nur degan adibning asarlari tugul, nomini ham bilmaydi. Hatto tahririyatda ishlaydigan ba'zi xodimlar mendan "Kim edi u? Nomi tanish eshitilyapti-yu, lekin eslayolmayapman", deb anqovsirab so'rashadi. Holbuki, u Navoiy zamonida yashab o'tgan ijodkor emas. U hayot bo'lganda bu yil 70 yoshga kirar edi. Yana buning ustiga u jo'ngina, oddiy bir ijodkor emasdi. U yozuvchi, eng mehnatkash, so'zga, adabiyotga sadoqatli, har so'zini mas'uliyat bilan aytadigan, kitobxon oldidagi burchini doim his qiladigan adib edi. U 60-yillarning boshida adabiyotga kirib keldi, ammo bunga qadar hayotda ancha narsani ko'rgan, durustgina tajriba orttirgan, bir so'z bilan*

aytganda, adabiyotga hali **og‘zidan ona suti ketmagan** bola bo‘lib emas, hayot va adabiyot haqida jiddiy, salmoqli fikr yurita oladigan, balog‘atga yetgan shaxs sifatida kirib kelgan edi. (Ozod Sharafiddinov “Ajalni yenggan adib”).

Og‘zidan ona suti ketmagan idiomasi yosh, tajribasiz, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rmagan, kishilarga nisbatan ishlatiladi. Aynan shu idioma bilan bog‘liq yana bir misol:

– *Mayli, nima bo‘lsa ham hozir berasiz, – dedim bo‘sh kelmay.*

– *Shuncha narsani **ona suti og‘zidan ketmagan** bolaga ishonib bo‘larkanmi, esi joyidami o‘rtog‘imning?*

– *Joyida, bera qoling.*

– *Voy, senam jinni bo‘lib qoldingmi?*

– *Bo‘lmasa tilxatni qaytarib bering.*

– *Bolaginam-ey, falokat sizlarni dovdiratib qo‘yibdi. Axir, bu zoranda tilxat yoningda tursa, har daqiqada sizlarni militsiya to‘xtatib tintuv qilishi mumkin, ularga shunaqa huquq beriladi, yoningdan chiqib qolsa, voy sho‘rim, bilasanmi qanaqa baloga qolasizlar? Unda bizning uyni ham tintuv qilishadi-ya. Birdan-bir himoyachilaring hozircha Muhamedov-ku. Yordamdan mahrum bo‘lib qolasizlar-a! Yoqutxonga es kirmadi, kirmadi-da. (Pirimqul Qodirov “Mungli ko‘zlar”).*

O‘zbek tilida yaratilgan badiiy asarlarni tahlil qilar ekanmiz, o‘zbek tilining leksik qatlami juda keng va rang-barang ekanligining guvohi bo‘ldik. Idiomatik ma’no kasb etgan birikmalar, iboralar, maqol va matallar ushbu leksik fondni yanada boyishiga xizmat qilgan. O‘zbek tilida *tomdan tarasha tushganday* idiomasi mavjud bo‘lib, badiiy asarlarda va so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladi:

Idioma tarkibidagi *tarasha* so‘zi asli fors-tojikcha so‘z bo‘lib, *taroshidan – randalamoq, archimoq* ma’nolarini anglatuvchi fe’lga asos bo‘lgan. O‘zbek tilida *randalangan taxta, taxta bo‘lagi, quruq o‘tin* kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Idioma sifatida *kutilmaganda, birdan, to‘satdan, qo‘qqisdan, tasodifan* ma’nolarini ifodalashda foydalaniladi.

– *Chatoq! – dedim tuyqustdan **tomdan tarasha tushganday** qilib.*

– *Anchadan beri yangi ish izlayapman.*

– Yo‘g‘-e, nahotki? – U o‘zi sezmagani holda ikkinchi bor cho‘ntagini paypasladi. – Bu-u... rostdanmi?

– Rost! – deya onamga yashirincha ko‘z qirimni tashladim. U derazani ochish bilan band bo‘lib, yolg‘onimga e‘tibor bermayotganidan foydalanib, pochtaga rosmasiga piching otdim. – Mabodo, pochtagizda bo‘sh o‘rin yo‘qmi? Bo‘lsa, ayting, amallab joylashib olardim.

– Voy, nimalar deyapsan, ukajon? – Davron aka astoydil taajjublandi. – Bu-u... sani sohang boshqa, bizniki boshqa bo‘sa...

– Nima qipti, tirikchilikning aybi bormi? – **Temirni issig‘ida bosish** uchun boyagidan battar to‘ng‘illadim. Eshik kesakisiga suyanayotib, tag‘in tilimga erk berdim. – Axir, qishlog‘imiz xuddi shaharday. Kim ko‘p – pensioner ko‘p. Har pul tarqatganimda istaganimcha “choychaqa” ishlasam, yana oylik olib tursam, yomonmi? Qaytaga yaxshimasmi, bir o‘q bilan ikki quyonni uraman-ku!

Keltirilgan parchada *temirni issig‘ida bosmoq* birikmasi ham keltirilgan bo‘lib, u ham idiomatik xarakterga ega. Biror bir ishni o‘z vaqtida qilish, ulgurish, g‘aflatda qolmaslik ma‘nolarini anglatadi.

O‘zbek tilida anqoning urug‘i birikmasi ko‘p uchraydi. Bu birikmada lingvomadaniy kod mavjud bo‘lganligi bois idioma deb qarash mumkin.

Nazarmat ota keyingi paytlarda hayronu lol. Qay bir avtobusga chiqmasin, dik etib o‘rnidan turib joy berguvchi yosh-yalanglar **anqoning urug‘i**. Hammalari go‘yo uxlab qolganday qiyshayibgina o‘tirishadi. “Yo, piray, yo o‘zimda biror gap bormikan, balki nogoh ko‘zboylagich xususiyati zohir bo‘lib, meni ko‘rgan yosh-yalanglar sehrlanib uxlab qolishayaptimi?” — shunday shubhali xayollar Nazarmat otani shifoxona tomon boshladi. Mana, u shaharning eng mashhur ruhshunos shifokori qabulxonasida o‘tiribdi. Ko‘p o‘tmay, qabul qilishdi. Sochlari oppoq shifokor qo‘liga mittigina, yaltiroq bolg‘achasini oldi va u bilan Nazarmat otaning tizzalariga navbatma-navbat urdi, ko‘zi ro‘parasida u yoq-bu yoqqa o‘tkazdi, turli-tuman savollar berdi, so‘ng yoyilib iljaydi:

– *Otaxon... tekshirib ko‘rdim, sizda hech qanaqa gipnozchilik qobiliyati yo‘q. Kim aytdi o‘zi buni sizga? Yoki... hazillashayapsizmi? (Ibrohim Choriyev “Ko‘zboylag‘ich”).*

Tadqiqotimiz davomida badiiy asarlarni tahlil qilar ekanmiz yana ko‘plab idioma xarakteriga ega bo‘lgan birikmalarni aniqladik va tahlil qildik. Quyida shunday idiomalarga misollar keltiramiz.

Idiomalar idiomatik birikmadan anglashilgan ma’noning emotsional-ekspressivligi bilan matnda o‘ziga xoslikni vujudga keltiradi. Ijodkorning so‘z qo‘llashdagi mahorati, xalq tilida mavjud bo‘lgan shunday lug‘aviy birliklarni topib, uni nutqda o‘z o‘rnida ishlata olishi bilan belgilanadi. Obrazlilikka boy bo‘lgan idiomalardan biri *tomi ketgan* idiomasidir.

*Yo aqldan ozgan kishi, yoki **tomi** endigina **keta boshlagan** odam ko‘p kulmasa, hozir kuladigan odamning o‘zi yo‘q. Hamma ho‘mraygan, o‘qraygan, bir-biriga otasini o‘ldirib qo‘ygan odamday, xalq dushmaniga qaraganday qaragan. Nimaga shunday? Chunki ulardan biri salgina iljayib qo‘ysa: “Buning ham **tomi ketib qopti-da!**” deb achinadiganlar yonginangizda o‘tirgan bo‘ladi. (Nurullo Oston “Kim ko‘p kuladi”).*

Bu idioma “ahmoqlik”, “aqlsiz ravishda ish qilish” ma’nolarini yuqori darajadagi belgi asosida ifoda etishiga ko‘ra obrazli va ta’sirchandir.

– *“Niyatingga yetib bo‘psanlar! o‘yladi u Husan va Valiga bir-bir boqib. – Senlarga sir boy beradigan ahmoq yo‘q. Qani, zo‘r bo‘lsang, gapirtir meni! Bo‘ynimni uzib tashlaganingdayam aytmayman! Ataylabam aytmayman!”*

– *Nega **latta chaynar** sigirga o‘xshab qotib qolding? – o‘shqirdi Vali. – Gapirmaysanmi? Kimning kissasini shilding? Bizgayam o‘rgat!*

– *Aytmasam-chi? – Valining ko‘zlariga bezrayib termildi Mannop. – Urasizmi? Kaltakdan qo‘rqmayman!*

*Xalqqa qanday ma’lum qilishni o‘ylashdi. Nihoyat, matbuot konferentsiyasi o‘tkazish kerak, degan fikrga kelishdi. Bir kun oldin shahar jurnalistlar uyushmasidan qo‘ng‘iroq qilib “Qo‘mita rahbarlari bilan qalam ahlining uchrashuvini tashkil qilsak” deyishgandi. **Qo‘l keldi**, darrov uyushmaga sim*

*qoqib, ertaga peshin chog'i vaqtlari borligini ma'lum qilishdi. Keyin o'zlari bosh muharrirlarga, muxolifat liderlariga, faollariga, diniy idoraga ham telefon qilib, vakillari qatnashishini so'rashdi. (Jahongir Muhammad "Tarixiy roman")*

Yuqoridagi matnda ikkita idiomama mavjud. Ularga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz. *Latta chaynar* idiomasi "mayda gap odam", "foydasi yo'q gaplarni aytuvchi shaxs" ma'nolarini ifodalaydi. Yeyish uchun mo'ljallangan narsa o'rniga latta chaynasa qorin to'ymagani kabi mayda gap odamning ham boshqalar uchun foydasi yo'q va vaqtni behuda o'tkazishdir. *Qo'l keldi* idiomasi "foydasi tegdi" ma'nosini ifodalaydi. Idiomalar ifodalaydigan ma'no shu vosita qo'llanilgan matn bilan uzviy bog'liq bo'lib, matn mazmuni bilan aloqador holda idiomaning ma'nosi ham reallashadi.

*– Biz uni (Tojimatni) yoshligimizda, bir qop yong'oq, der edik. Essiz, — deb achindi Nazarov. (S.Anorboyev "Oqsoy")*

*– Ha, G'ani samovarchi eski qadrdonim. Qurmag'ur bir qop yong'oq: borsam, sira zeriktirmaydi. (H.G'ulom "Mash'al")*

*Bir qop yong'oq* idiomasi "xushchaqchaq", "bir gapirib o'n kuladigan" odamlarga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida idiomalarning manbasi og'zaki va badiiy nutq bo'lib, badiiy matnlarda uchraydigan bir qator idiomalarning og'zaki nutqda, oddiy so'zlashuvda mavjudligi seziladi. Bunday matnlarning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi ularni badiiy matnlarga olib kirilishi uchun zamin yaratadi.

Yana bir qator idiomalar mavjudki, ular badiiy matnlarda obrazlilik, shaxs xarakteri, zamon va makon umumiyliigi haqida kitobxonda tasavvur uyg'otadi.

*Tursun uyalib boshini qimirlatdi.*

*– Yo'q, adang poraxo'r emas. Poraxo'rlarni pichog'i moy ustida bo'ladi. Adang labarant edi. Labarantda nima bo'lardi? Adangni aldashgan. Manavini xo'jayinizga berib qo'ying, deyishgan. Adangam bu gazetaga o'rog'liq narsa nima ekan, deb surishtirmay-netmay olib qolgan. Xo'jayiniga berguncha milisa bosgan. Adangni gunohi shu. Adang poraxo'rmas, o'g'riyammas. Solihabibi ishonch bilan gapirdi. Nevarasini ham, o'zini ham u aldashni istamasdi. (O'lmas Umarbekov "Yer yonganda")*

*Pichog'i moy ustida* idiomasi ko'pchilikka ma'lum. Bu idioma negizida "yegani oldida, yemagani ortida", "o'sha davr mobaynida hamma ishi besh bo'lishi"ga ishora bor. Idiomaning moy ustida, yog' ustida variantlari ham mavjud bo'lib, ikkisi ayni ma'noni ifodalaydi.

*G'azabi qo'ziganlardan nechtasi uni o'ldirmoqqa shaylandi. Biroq hech birining qo'lidan kelmadi. Buning o'rniga o'zlari narigi dunyoga ravona bo'lishdi. Bunday voqealar tobora tezlashib ketayotganidan xavotirga tushgan chol o'zining qiyofadoshini qidirdi. U bu ishni xufiyona, uchta og'ziga mahkam, ishonchli yigitiga buyurdi. Uzoq qidiruvlardan keyin, nihoyat, unga **ikki tomchi suvday** o'xshaydigan qirq yoshdan o'tib qolgan odam topildi. Faqat soqoli yo'q edi. Ramiznikiga o'xshash soqol yasash muammo tug'dirmasdi, albatta. Ularning o'rtasidagi yagona farq xarakterida edi. Ramiz – jizzaki, cho'rtkesar, qo'pol, joyi kelsa o'z onasini tanimaydigan bo'lsa, Fevzi uning butunlay aksi edi. Biroq o'z vaqtida dzyudo bilan shug'ullanib, ikki marta o'z yurtining, bir marta ittifoqning chempioni bo'lgan edi. (Nuriddin Ismoilov "Maftiya sardori")*

Nasriy asarlardagi idiomalar tahlili asosida quyidagi natijalar olindi:

- idiomalar o'zbek adabiyotining ajralmas qismidir;
- idiomatika sotsial-madaniy hodisa sifatida badiiy matn ichidagi o'ziga xos ko'rinishlarning keng doirasini o'z ichiga oladi;
- o'zbek tilidagi ko'rib chiqilayotgan idiomalarning asosiy qismi madaniy yo'naltirilgan konnotatsiyaga ega;
- idiomalarda shaxsning qadr-qimmati va axloqiy xulq-atvori ikkilamchi nominatsiya birliklarida turli obrazli shakllar bilan tuzilgan.

Frazeologik iboralar qaysi shaklda qo'llanishidan qat'iy nazar tilda o'ziga xos normaga egaligi ko'rinadi. Xuddi shu normativlik ularning bir tildan ikkinchi tilga o'tishini qiyinlashtiradi. Frazeologizmlar, odatda, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan tashkil topishi natijasida ularning ko'rinishi so'z birikmalariga o'xshaydi. Hatto shunday frazeologizmlar va so'z birikmalari borki, ularni ibora va birikma holida farqlash oson kechmaydi. Bundan anglashiladiki, so'z birikmalari denotativ, frazeologizmlar esa konnotativ xususiyat kasb etadi

hamda ularni kontekstdan farqlashga to‘g‘ri keladi. Demak, so‘zlarning har qanday birikuvi frazeologizm hisoblanmaydi. Ular tuzilishi va ma‘no-mazmuni jihatidan murakkab, ko‘p aspektli til hodisasi bo‘lib, muayyan normasi va spetsifik belgilari mavjud. Iboralar shakllanishida azaldan xalq tilining o‘rni va roli katta. Aslida xalq tilida yaratilgan idiomalar asta-sekin adabiy tilga badiiy asarlar orqali kirib borgan.

### **3.2. She‘riy asarlarda idioma**

Frazeologik birliklar milliy adabiy tilning ham og‘zaki, ham yozma shaklida; og‘zaki ham yozma nutqda keng qo‘llanuvchi til hodisalaridir. Tilning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri frazeologizmlardir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namoyon bo‘ladi. Ular nutqning ta‘sirchan va bo‘yoqdor bo‘lishini ta‘minlaydi. Frazeologik birliklar ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Har bir tildagi frazeologizmlarni o‘rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi.

Idiomalar xalq tomonidan yaratilgan, shuning uchun ular oddiy odamlarning qiziqishlari va kundalik faoliyati bilan chambarchas bog‘langan. Ko‘pgina frazeologik birliklar e‘tiqod va an‘analar bilan bog‘liqdir.

Har bir inson o‘z g‘oyalari va fikrlarini ifodali ifoda etishga intiladi va buni dunyoning har bir tilida mavjud bo‘lgan idiomalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Ular nutqni kuchaytiradi va jamiyatning madaniy me‘yorlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

*Ammamning buzog‘iga,*

*O‘xshab ketar bo‘z bo‘ri.*

*Tulkining tuzog‘iga*

*Tushib qaynadi sho‘ri.*

*(Dilfuza Kamoljonova “Bo‘rining sho‘ri”)*

*Ammamning buzog‘i* idiomasi o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan birikmalardan bo‘lib, o‘zbek xalqiga xos stereotipik xarakter bilan ifoda etilgan.

Bunda asosiy ko‘chish tashqi ko‘rinishni o‘xshatish asosida vujudga kelgan. Buzoqdagi ma’nosiz qarash, atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan e’tiborsizlik, vaziyatni baholamaslik kabi xususiyatlar ushbu idiomaning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Mazkur idioma *sodda, loqayd, befarq* kishilarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tilida *buzoqbosh, buzoqkalla* kabi birikmalar ham aynan shunday insonlarga nisbatan ishlatilishini hisobga olgan holda, buzoq leksemasi har ikkita holatda ham bir xil ma’no-mazmunni ifodalashga xizmat qilmoqda deyish mumkin.

*Anqoning urug‘i menga qarindosh,  
Dard to‘lib ketganda topilmas sirdosh.  
Nokas-u nomardga egmasin bosh,  
Ukamning omadin bergil xudoyim.*

*(Iroda Osmon. Ukamni omadini bersin xudoyim)*

Parchada keltirilgan *anqoning urug‘i* idiomasi asos bo‘lgan anqo – afsonaviy qush. Qadimgi sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy. U qush insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydi. Qanotlari va patlari oltin-kumushdan deb ta’riflanadi. Xalq orasida Anqo baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa, o‘sha baxtli bo‘ladi degan qarashlar mavjud. Rivoyat va ertaklarda anqo qushi semurg‘ va humoga ham o‘xshatiladi. *Taqchil, kamyob* narsalar haqidagi “anqoning urug‘i” degan ma’no shundan olingan.

*Yo afandi, yoki bir tentak,  
Balki pismiqlik, ichidan pishgan.  
Dong qotirib, o‘zi-chi sergak,  
Kissamizga jim-jim yopishgan.  
Yetar! Tinglab keldik shom-sahar,  
Vaqt yetdi, o‘rindan jilgani.  
To‘ydirmaydi qorin cho‘pchaklar,  
Qo‘zg‘oldik shilganni — shilgani!*

*Bobur Nusratov. “Mashg‘ulot”*

Ichidan pishgan birikmasi ham idioma sifatida talqin etiladi. Pisman, puxta, o‘z ishiga ehtiyot bo‘lib harakatlanadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Odatda biror meva yoki sabzavotning tashqi ko‘rinishi uning pishib yetilganini bildirsa-da, ichki qismi xom bo‘lishi mumkin, yoki aksincha. Shu xususiyat insonlarga ko‘chirilgan. Ya’ni, ko‘rinishidan sodda, bo‘shov ko‘ringan kishilar aslida unday bo‘lmasliklari mumkin.

*Donishni qiynab to‘ymagan,  
Xoli-joniga qo‘ymagan,  
Nodon bilan kulib o‘ynagan,  
**Pixini yorgan dunyosan.**  
O‘g‘rini siylab ovloqda,  
Oshini maqtab tovoqda,  
To‘g‘rini qiynab sirtmoqda,  
Loylarga qorgan dunyosan.*

*Muhammad Yusuf. Mashrab xirgoyisi*

Parchada keltirilgan *pixini yorgan* birikmasi puxta, ayyor, makkor, quv, hayotiy tajribaga ega, ko‘p ish ko‘rgan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Idiomaga asos bo‘lgan so‘z – pix. U ayrim erkak parrandalarning oyog‘ida bo‘ladigan muguzsimon uchli o‘simta. Shu o‘simtaning yorilishi erkak parrandalarda yoshining kattaligi, o‘zaro kurashlarda (cho‘qishishlarda) ko‘p ishtirok etganligini bildiradi. Aynan mana shu mazmun insonga ko‘chirilgan.

Idioma atamasi o‘zbek tilshunosligida ham, dunyo tilshunosligida ham ko‘proq ma’nosi to‘liq ko‘chirilgan, ya’ni butun birlik ma’nosi komponentlarning hozirgi ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydigan frazeologik birliklarga nisbatan qo‘llaniladi. Ko‘pgina olimlar idiomalarni frazeologiyaning mohiyati va frazeologiyaga qiziqishning asosiy yo‘nalishi va frazeologiyani tadqiq qilishning asosiy yo‘nalishi deb hisoblashadi. Badiiy asarlar tarkibida kelganda ham “butun birlik ma’nosi komponentlarning hozirgi ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydigan frazeologik birlik” ta’rifi o‘zgarishsiz qolaveradi.

O‘zbekcha nasriy matnlarda idiomalarni keraklicha uchratishimiz mumkinligini yuqoridagi faslda kuzatdik. Biroq she’riy shakldagi matnlarda idiomalarni qo‘llanish holati nasriy asarlarga nisbatan kamchilikni tashkil etadi.

### **III bob bo‘yicha xulosalar**

1. Badiiy matnlardagi idiomalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu qatlam, bir tomondan, tilning ajralmas noyob qismi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ma’lum bir xalq dunyoqarashini ifodalovchi bo‘laklardan biri hisoblanadi.

2. Badiiy asarlardagi idiomalar badiiy obrazlar yaratish, personaj nutqi va muallif nutqiga ekspressivlik berishning muhim lingvistik vositasidir. Idiomalarning muayyan stilistik maqsadlarda qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari yozuvchining g‘oyaviy-tematik niyati bilan belgilanadi.

3. Idiomalarning matndagi eng muhim vazifalaridan biri dunyo haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishdir, idiomalar dunyoning lingvistik rasmini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Turli hodisalar, vaziyatlar va hayotiy tajribalarning xilma-xilligi bizning fikrlashimizni umumlashtirilgan og‘zaki modellarni shakllantirishga undaydi.

4. Idiomalarni badiiy asar personajlari va asar g‘oyasiga muvofiq o‘zgartirish mumkin. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq idiomalarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab ularni o‘zgartiradi va qayta ishlaydi.

5. Idiomalar, odatda, ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi va badiiy adabiyotda kinoya, qochiriq, ma’noli obrazlilikni yaratuvchi vositalardan biri sifatida qo‘llanadi.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Frazeologiya xalqning boy tarixiy tajribasini, ularning donoligini o‘zida mujassam etib, unda odamlarning mehnat, hayot va madaniyat bilan bog‘liq barcha g‘oyalarini aks ettiradi. Badiiy asarda maqollar, maqollar, idiomatik iboralar eng ko‘p milliy rangni tasvirlashning muhim vositasi hisoblanadi.

2. Idioma tushunchasi bilan bog‘liq ravishda qator muammolar, xususan frazeologizm o‘zi nima, “idioma” va “idiomatika”, idiomatiklik spesifikasi, idiomalarning bir so‘zga muqobildorligi, turg‘un so‘z birikmalar metaforikligi va obrazlilik, semantik motivlashmaganlik va anomaliya, idiomada “ma’nolar ko‘chishi” yoki “semantik yangilanish”, ba’zi idiomalarni o‘zga tillarga o‘girib bo‘lmaslik yoki o‘girishning juda qiyin kechishi, idiomalardagi ekspressivlik, so‘zlarning ekvivalentligi kabi masalalar ilmiy yechimini topish dolzarblik kasb etadi.

3. Idiomalar tarkibi va semantikasi murakkab, turfa xilligi tufayli hozirgi tilshunoslikda frazeologik birliklarning tabiati va talqini bo‘yicha haligacha yagona fikr mavjud emas.

4. Idiomalarning kategorial xususiyatlarini aniqlash mezonlari yuqorida aytib o‘tilganidek, frazeologik birliklarning tarkibiy qismlarining ma’nolaridan chiqarib bo‘lmaydigan ma’noning barqarorligi, takrorlanuvchanligi, yaxlitligi, boshqa tillarga tarjima qilinmasligi, tarkibiy o‘zgarmasligi, tasviriyligi va boshqalar.

5. Idiomalar, o‘z navbatida, tillarni solishtirganda, bir tomondan, ona tilida so‘zlashuvchilar ongida idrok etishning milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatib, konseptual ma’nolarni ko‘rsatishga qodir bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular ona tilida so‘zlashuvchilarning milliy va madaniy o‘ziga xosligining aniq namoyon qilinishidir.

6. Tildagi idiomalarni milliy-madaniy mazmun nuqtayi nazardan o‘rganish, shuningdek, ushbu tilda so‘zlashuvchilar ega bo‘lgan asosiy bilimlar bilan tanishish va bu holda ularning milliy-psixologik xususiyatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

7. Badiiy asarlardagi idiomalarning o'rganilishi ularning matnda amal qilishini, kontekst bilan bog'lanish xarakterini aniqlash imkonini beradi. Muayyan estetik ma'noga ega bo'lgan idiomalar kontekstni jonlantiradi, unga ta'sirchanlik va yorqinlik baxsh etadi. Idiomalarning funksional-ekspressiv vazifasini kuchaytirish, uni kontekstda tushuntirishga yordam beradi. Aynan shu sharoitda idiomalarning potensial imkoniyatlari ochilib, estetik vazifasi aniqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK

#### AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 486 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 7 февраль. № 28 (6722).

### II. MONOGRAFIYA, O‘QUV QO‘LLANMA, ILMIY MAQOLA, ILMIY TO‘PLAMLAR

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1961. – 161 с.
2. Аничков И.Е. Идиоматика и семантика (Заметки, представленные А.Мейе, 1927) пер. с франц. Выдрин В.Ф. Вопросы языкознания 1992. №5. – 140 с.
3. Аничков И.Е. Идиоматика в ряду лингвистических наук // Он же. Труды по языкознанию. СПб. : Наука, 1997. – С. 101–145.
4. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Издательство Иностранная литература. 1961. – 344 с.
5. Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Внутренняя форма идиом и проблема толкования // Известия АН РФ. Серия литературы и языка. Т.57. №1. 1998. – 36-44 с.
6. Буянова Л.Ю. Русский фразеологизм как ментально-когнитивное средство языковой концептуализации сферы моральных качеств личности: монография – М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. – 184 с.

7. Бухаловский А.А. Введение в языкознание. – М.: Учлеприз. 1954. – 536 с.
8. Верещагин Е.М. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с.
9. *Виноградов В.В. Лексикологии и лексикография. – М.: 1977. – 312 с.*
10. Жаъфаров С. Ҳозирги замон озарбайжон тили лексикаси. – Боку, 1958.
11. Жуков В.П. Русская фразеология: учебное пособие // В.П. Жуков, А.В. Жуков. – М.: Высшая школа, 2006. – 408 с.
12. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: “Высшая школа”, 1987. – С. 118.
13. Мельчук И.А. О терминах “устойчивость” и “идиоматичность” // Вопросы языковедения. 1960. №4. – 76 с.
14. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М., 1987, – С. 33-39.
15. Раевский М. Р. Замечания по спорным проблема фразеологии // Проблемы русской фразеологии: республиканский сб. – Тула: Тульский гос. пед. инс. им. Л. Н. Толстого, 1976. — С. 115-116.
16. Рахманова В.С. Цетлина. – М: Просвещение, 1967. – С. 289.
17. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект пресс. 2006. – 128 с.
18. Саломов Ғ. Мақол ва идиомаларнинг таржимаси. – Т.: “ФАН”, 1961. – 18 б.
19. Солодуб Ю.П. Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект): Учебник для студентов филологических факультетов и факультетов иностранных языков. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 264 с.

20. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты // – Москва: Язык русской культуры, 1996, – 288 с.

21. Телия В.Н. Русская фразеология. –М.: Школа “Языки русской культуры”. 1996. –С. 133-134.

22. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка / Н.М. Шанский. – М.: Просвещение, 1985. – 260 с.

23. Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. — Vol. 2. Phrase, Clause and Sentence Idioms. — Oxford University Press, 1983.

24. Daniel Sanford. Metaphor and phonological reduction in English idiomatic expressions // Cognitive Linguistics. – Berlin/New York, 2008. vol. 19, N 4. – 585–603 pp.

25. Filmore Ch.J., Kay P., O'Connor M.C. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone. – Language, 1988. – vol. 64. N.3. – 501-538 pp.

26. Плунгян В.А. Общая морфология: Введение к проблематике. – Москва:2003. – С.384.

### **III. DISSERTATSIYALAR VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI**

1. Аржанцева Н.В. Сложные слова со вторым компонентом-отглагольным существительным в немецком и английском языках и их соответствия в русском языке. Диссертация ... кандидата филологических наук. Казань, 2004.

2. Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филолог.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2021. – 27 б.

3. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филология фанлари д-ри (DSc) дисс... автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б. 13.

4. Раҳимова Ш. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. автореф., – Тошкент. 2019, – 53 б.

5. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол. фан. ном. дисс. – М., 1952. – Б. 52.

6. Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. Самарканд, 1966. – 179 с.

7. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Фил. фан. д-ри (DSc) дисс. Тошкент, 2020.

8. Yoʻldoshev B. Hozirgi oʻzbek tilida frazeologik birliklarning funktsional – uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 1993. – B. 47.

#### IV. LUGʻATLAR

1. Большой энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия. 1998. – 171 с.

2. Омонтурдиев. А.Ж. Чорвачиликка оид сўз ва атамаларнинг қисқача тематик эвфемик луғати. – Тошкент, 2015.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – 380 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2006. – 680 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2006. – 671 б.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2007. – 687 б.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 606 б.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, бешинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 591 б.

9. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 1995. – 158 б.

10. Longman dictionary of English Language and Culture. New edition. – London: Pearson Longman. 2006. – 693 p.

#### **INTERNET MANBALARI**

1. <https://diss.natlib.uz>
2. <https://natlib.uz>
3. <http://en.wikipedia.org/wiki>
4. <http://www.ziyo-net.uz>
5. <http://www.kutubxona.uz>
6. <https://booklime.ru>